

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI**

**SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI**

**Veterinariya, zootexniya va qorako'lchilik fakulteti  
«5440100-Veterinariya» ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi**

**Sherboyev Jaxongir G'ayratovichning**  
**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: "Itlarda tanosil sarkomani xirurgik yo'l bilan davolash"**

**Ilmiy rahbar, dotsent**

**Narziyev B.D.**

**Veterinariya, zootexniya va  
qorako'lchilik fakulteti  
dekani, dotsent \_\_\_\_\_  
H.B. Niyozov  
« \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2015 yil**

**"Hayvonlar anatomiyasi, fiziologiyasi,  
jarroxlik va farmakologiya" kafedrası  
mudiri, dotsent \_\_\_\_\_ B.D. Narziyev  
« \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2015 yil  
№ \_\_\_\_\_ - sonli yig'ilish bayoni**

**SAMARQAND – 2015**

## MUNDARIJA

<b>1. Kirish</b> .....	<b>3</b>
<b>Prezidentning 308 va 842-qarorlari</b>	
<b>Keksalarni e'zozlash yili Davlat dasturi</b>	
<b>1.1. Mavzuning xalq xo'jaligidagi dolzarbligi va uni ilmiy asoslash</b> .....	<b>6</b>
<b>2. Adabiyotlar tahlili</b> .....	<b>11</b>
<b>2.1. Hayvonlar orasida o'smalarning tarqalishi</b> .....	<b>14</b>
<b>2.2. Hayvonlar uchraydigan o'smalarning klinik diagnostikasi</b> .....	<b>15</b>
<b>2.3. Hayvonlarda o'smalarni oldini olish va davolash bo'yicha umumiy takliflar</b> .....	<b>18</b>
<b>3. Shaxsiy tekshirishlar</b> .....	<b>21</b>
<b>3.1. Material va tekshirish uslublari</b> .....	<b>21</b>
<b>3.2. Itlarda jinsiy a'zo o'smalarini keltirib chiqaruvchi ekologik omillar va ularning uchrash darajasi</b> .....	<b>24</b>
<b>3.3. Itlarda jinsiy organlar o'smalarini konservativ va operativ usulda davolash</b> .....	<b>32</b>
<b>4. Veterinariya ishini tashkil etish va uning iqtisodi</b> .....	<b>34</b>
<b>5. Hayot faoliyat xavfsizligi</b> .....	<b>50</b>
<b>5.1. Mehnatni muhofaza qilish</b> .....	<b>50</b>
<b>5.2. Fuqarolar mudofaasi</b> .....	<b>51</b>
<b>6. Q/x da menejment va marketing</b> .....	<b>53</b>
<b>7. Xulosa va amaliyotga takliflar</b> .....	<b>56</b>
<b>8. Foydalangan adabiyotlar ro'yxati</b> .....	<b>57</b>
<b>9. Ilova (internet ma'lumotlari va rasmlar)</b> .....	<b>61</b>

## 1. Kirish

Mamlakatimiz mustaqilligining 24 yilligini nishonlash arafasida ortga nazar tashlasak, ushbu o'tgan yillar xuddi tarix charxpalagining bir marta aylanishiga ketgan vaqtdek qisqa bo'lsa ham samarasi jixatidan asrlarga tatigulik ulkan natijalarga boy tadbirlar va islohotlar amalga oshirilganligini xech bir fuqaro inkor eta olmaydi. Ortda qolgan o'tish davrida amalga oshirilgan o'zgarishlarni sarxisob qilar ekanimiz – jamiyat taraqqiyotining barcha soxalarida millatning o'zligini anglashi, qadr –qimmatini, oriyatini, an'analarini tiklashning mazmun va mohiyati amalga oshirilayotgan ko'plab tadbirlarda asos qilib olinganligi ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Jumladan barcha soxalar kabi qishloq xo'jaligi soxasini rivojlantirish borasida ham ko'pgina islohatlar olib borildi. Jumladan Prezidentimiz tomonidan chorvachilikni rivojlantirishga juda katta e'tibor berilib, mamlakatimiz aholisini chorva maxsulotlariga bo'lgan talabini qondirish, aholini sifatli chorva maxsulotlari bilan ta'minlash hamda respublikamizda chorva mollari bosh sonini ko'paytirish va sifatini yaxshilash borasida ko'pgina qaror va qonunlar ishlab chiqilib amaliyotga tadbiq etib kelinmoqda. Jumladan, 23 mart 2006 yilda chiqarilgan "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirilishini rag'batlantirish chora – tadbirlari to'g'risida" 308 – qarori va "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollar ko'paytirishni rag'batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2008 yil 21 apreldagi PK-842 qarori chorvachilikni rivojlantirishga juda katta turtki bo'lib xisoblanadi.

Respublikimiz mintaqasida kechayotgan iqtisodiy isloxotlar asosida yangi mulkchilikda shakllangan tipdagi xo'jaliklarni yaratish, bu xo'jaliklarni iqtisodiy va xususiy negizlarini ishlab chiqish shu asosida axolini oziq – ovqatga bo'lgan extiyejini qondirish, ma'naviy – mafkuraviy yangi dunyoqarashni shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa o'tgan xar bir kunimizning mazmuni naqadar boy benazir ekanini yakkol namoyon etadi. Shak-shubxasiz bunday o'lkan ko'tarilish, tarakkiyot

jarayoni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti muxtaram I. A. Karimov olib borayotgan siyosat natijasidir.

### **“Keksalarni e'zozlash yili” Davlat dasturi**

Mamlakatimizda 2015 yil “Keksalarni e'zozlash yili” deb e'lon qilinishi munosabati bilan Davlat dasturi qabul qilindi. Keksalarni hurmat qilish, ularga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish jamiyatimizning o'ziga xos yuksak ma'naviy va madaniy belgisidir. O'zbek xalqiga azaldan xos bo'lgan bunday yuksak fazilatlar istiqlolimizning dastlabki yillaridan mamlakatimizda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Davlat dasturi keksalarning hayot darajasi va sifatini yanada yaxshilash, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish, yoshi ulug' insonlar, ayniqsa, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylariga ijtimoiy, pensiya ta'minoti va tabiiy xizmat ko'rsatishni takomillashtirish, oila va jamiyatda, yoshlarni o'zbek xalqining ko'p asrlik qadriyat va an'analari ruhida tarbiyalashda keksalarning o'rnini mustahkamlash maqsadida, shuningdek, 2015 yilning “Keksalarni e'zozlash yili” deb e'lon qilinishi munosabati bilan qabul qilindi.

Quyidagilar Davlat dasturini amalga oshirishning ustuvor vazifa va yo'nalishlari etib belgilandi:

- keksalarga g'amxo'rlik ko'rsatish va e'tiborni kuchaytirish, ularning hayot darajasi va sifatini oshirish uchun qulay tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, pensiya ta'minoti va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, yoshi ulug' insonlarga davlat xizmatlari, shu jumladan, turli ma'lumotnoma va tasdiqlovchi hujjatlarni olish xizmatlari ko'rsatishning eng qulay tizimini shakllantirish;

- keksalar, avvalambor, fashizm ustidan qozonilgan g'alaba va Vatanimizni qayta tiklashga munosib hissa qo'shgan 1941-45 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylarini manzilli ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, yoshi ulug' insonlar, birinchi navbatda, yolg'iz qariyalar va nogironlarga

ko'rsatiladigan ijtimoiy va maishiy xizmatlar ro'yxatini kengaytirish, ularni farovon va munosib turmush sharoitlari bilan ta'minlash uchun mahallalar, "Nuroniylar" jamg'armasi, boshqa nodavlat tashkilotlari va ijtimoiy tuzilmalar tomonidan moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash miqyosini oshirish;

- faxriylar va yoshi ulug' insonlarga tibbiy va ijtimoiy xizmat ko'rsatish darajasi va sifatini oshirish, ularni tizimli asosda sog'lomlashtirishni tashkil etish, profilaktika tadbirlarini ko'paytirish, ko'rish va eshitish organlari, tayanch-harakat tizimi va yurak qon-tomir kasalliklarini davolashning zamonaviy usullari bilan qamrab olish va ulardan foydalanishni kengaytirish, keksalar va nogironlarni yordamchi hamda texnik rehabilitasiya vositalari bilan, jumladan, imtiyozli asosda ta'minlash, keksalarga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashtirilgan sanatoriya-sog'lomlashtirish va ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash;

- mamlakatimizning mudofaa qobiliyati, iqtisodiy, madaniy va intellektual salohiyatini oshirish, jamiyatimizda tinchlik, totuvlik va barqarorlik muhitini mustahkamlashga bebaho hissa qo'shgan, sog'lom va barkamol unib o'sayotgan avlodni tarbiyalashda faol ishtirok etayotgan keksa avlod vakillariga munosib e'tibor qaratish va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlarni tizimli asosda amalga oshirish, oila va jamiyatda yoshi ulug' insonlarning o'rni va obro'sini oshirish, bolalar va yoshlarni ota-onalari, har bir nuroniyni chuqur hurmat qilish, e'zozlash va ularga g'amxo'rlik ko'rsatish tuyg'usi ruhida tarbiyalash bo'yicha aniq tadbirlarni amalga oshirish;

- har bir keksaga har tomonlama e'tibor qaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini kuchaytirish va oshirish, keksalarning hayot faoliyati va dam olishini tashkil etish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, bunda ular uchun tuman va mahallalarda muloqot markazlari, qiziqishi bo'yicha klublar tashkil etishga alohida e'tibor qaratish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari uchun sharoit yaratish, televideniye, ommaviy axborot vositalari, kinoteatrlar, teatr va boshqa madaniy-ma'rifiy muassasalarda yoshi

ulug' insonlarning qiziqishlariga mos mavzuda yangi maxsus ko'rsatuvlar, spektakl va filmlar yaratish va efirga uzatish hajmini ko'paytirish;

- mahallalar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tashkiliy tuzilmasida keksalar va nogironlarga doimiy e'tibor qaratadigan sektorni mustahkamlash, bunda ularga xizmat ko'rsatadigan idora va xizmatlar, birinchi navbatda, pensiya, ijtimoiy va tibbiy ta'minot xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilishni nazarda tutish.

“Keksalarni e'zozlash yili” Davlat dasturiga kiritilgan tadbirlarning to'liq, o'z vaqtida va sifatli bajarilishini tashkil etish va nazorat qilish Respublika komissiyasiga yuklatildi.

### **1.1. Mavzuning xalq xo'jaligidagi dolzarbligi va uni ilmiy asoslash**

So'nggi yillarda respublikamizda kinologiya xizmatini rivojlantirishga katta e'tibor berib kelinmoqda. Davlatimiz rahbari I.A. Karimov tomonidan ushbu masalaga Davlat ahamiyati darajasida e'tibor qaratilib, soxani rivojlantirishga oid bir qator qaror va qonunlar qabul qilinib, natijada respublikamizda milliy kinologiya markazlari, itlarni saqlash pitomniklari, kinologiya bo'limlari tashkil etildi.

Oxirgi yillarda xizmat itlari orasida keng tarqalib borayotgan patologik jarayonlardan biri - o'smalar patologiyasi bo'lib, umumiy kasalliklarning 5-10% ni tashkil qilmoqda. O'smalar muammosi tibbiyot va veterinariya mutaxassisilari orasida dolzarb muommolardan biridir. Bu muommani hal qilish maqsadida ko'pgina olimlar ilmiy –tadqiqotlar olib borib o'z xissasini qo'shmoqdalar.

O'smalar tabiatda keng tarqalgan bo'lib odamlarda va barcha turdagi hayvonlarda, jumladan itlarda ham uchraydi. Ular shakl tuzilishi jixatidan uy, laborator va yirtqich hayvonlarda har xil bo'lishiga qaramasdan, o'sish qonuniyatlari, organizmga ta'siri va klinik ifodasi bo'yicha bir – biriga o'xshash bo'ladi. Odam va itlarning o'smalari, boshqa kasalliklardan farqli o'laroq yagona prinsiplial gurux bo'lib umumbiologik ahamiyatga ega.

K.N..Terexov (1983); G.I.Abelev (1977); A.D.Belov, M.V.Plaxotin, B.A.Bashkirov i dr. (1990); va boshqa ko'pchilik olimlar itlarda o'smalar 20–30%

holatlarda uchrashini aytadilar. Bundan ko'rinib turibdi, o'smalar hayvonlar orasida keng tarqalgan.

Barcha hayvonlardek itlarda har xil kasalliklar ko'p uchraydi bularning ichida ichki yuqumsiz kasalliklar katta foizini tashkil qiladi.

K.I. Shakalov (1981), T.S. Kuznesov (1980) ma'lumotlariga ko'ra, ichki yuqumsiz kasalliklar barcha turdagi kasalliklarga nisbatan 94-97% ni tashkil qilib, shulardan 40% xirurgik kasalliklarga to'g'ri keladi.

Onkologiya – xavfli o'smalar (saraton, rak) muammosi, uning tarixi, kelib chiqish omillari, normal hujayraning o'sma hujayraga aylanish mexanizmlarini aniqlash, davolash va oldini olish kabi barcha tarmoqlarni o'rganuvchi fandır.

Oxirgi yillarda hayvonlarda ham xirurgik kasalliklar orasida keng tarqalib borayotgan patologiya - bu o'smalar patologiyasi bo'lib, umumiy kasalliklarning 5-10% ni tashkil qilmoqda. O'smalar muammosi biologik va tibbiyot - veterinariya nuqtai nazardan qiziqish tug'diradi. Bu muommani hal qilish maqsadida ko'pgina ilmiy mutaxassislar o'z xissasini qo'shmoqdalar.

O'smalar tabiatda keng tarqalgan bo'lib odamlarda va barcha turdagi hayvonlarda uchraydi. Ular shakl tuzilishi jixatidan uy, laborator va yirtqich hayvonlarda har xil bo'lishiga qaramasdan, o'sish qonuniyatlari, organizmga ta'siri va klinik ifodasi bo'yicha bir xil bo'ladi. Odam va hayvonlarning o'smalari, boshqa kasalliklardan farqli o'laroq yagona prinsipial gurux bo'lib umumbiologik ahamiyatga ega.

Hayvonlardagi o'smalar patologiyasini muhimligi jixatdan odamlar patologiyasi bilan taqqoslab bo'lmasa ham yomon sifatli ya'ni xatarli o'smalar muammosi veterinariyada dolzarb bo'lib xisoblanadi. Oxirgi yillarda katta shaxarlarda yashaydigan itlarning orasida o'smalar soni ko'payib bormoqda. Ular egasiga tashvish yetkazib, itlarning sog'ligiga ancha sezilarli zarar yetkazmoqdalar. O'smalarni davolash uchun har xil, ya'ni konservativ (ximioterapiya) nurlantirish va xirurgik (operativ) usullar qo'llanadi. O'smalar meditsina va veterinariyada asosan xirurgik yo'l bilan davolanadi.

Shuning uchun bizlar o'z oldimizga itlarning turli xil xavfli va xavfsiz o'sma kasalliklarida ularning immunologik ko'rsatkichlarinig o'zgarishini o'rganishni maqsad qilib qo'ydik.

O'smalarga oid muammolarning hal qilina boshlanishi ko'pgina ilmiy izlanishlardan keyin ya'ni XX asrdagi texnika taraqqiyotining davriga to'g'ri kelgan edi. U vaqtda yangi imkoniyatlar ochila boshladi. Elektron mikroskopning yaratilishi, biokimyoy, immunologiya va bir qator fanlardagi rivojlanishlar hujayra va uning kasalliklarini aniqlashga sabab bo'ldi. O'tgan asrimizning 50-60 yillariga e'tibor beradigan bo'lsak bu davrda o'smalarga nisbatan katta qiziqishlar tug'ildi. Bizning yurtimizda boshqa rivojlangan davlatlarga nisbatan o'sma kasalliklari ko'proq ikkinchi o'ringa tushib qolgan. Birinchi o'rinda esa yurak-qon tomir kasalliklari turadi. Ko'pgina odamlar o'smalarga qaraganda yurak kasalliklaridan ko'proq vafot etmoqda. Xonlik davrida tug'iladigan bolalarning ko'pi hayotining birinchi besh yilligida o'lib ketgan. Bularning sababi o'sha davrda tibbiyot va veterinariya sohalari yaxshi yo'lga qo'yilmagan edi. Biz mikrobiologiya va immunobiologiya yutuqlaridan faxrlanishimiz kerak. Sababi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan ko'pgina tibbiyot yutuqlari hozirgi vaqtda tibbiyot va veterinariyani rivojlantirib bormoqda. Erishilayotgan har bir yutuq va yangilik biz uchun yanada muhimdir.

Hozirgi kunda ham o'smalarning kelib chiqish sabablari noma'lum bo'lib kelmoqda. Nima bo'lganda ham biz o'sma kasalligini yanada o'rganishga, uning organizmga ta'sirini, qonning morfologik ko'rsatkichlarini o'rganishimiz, oldingi o'rganilgan ilmiy ishlar bilan hozirgi ishlarni o'zaro solishtirib va muloxaza yuritib ish olib borishni maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

It – hayvonlar orasida odam uchun eng sodiq jonivor hisoblanadi. J.Kyuvening ta'kidlashicha itlar insoniyat uchun eng noyob, foydali va o'ta mukammal topilmalardan biridir. Inson itlarning o'ta zehnliligi, hidlarni o'tkir sezishi, yaxshi ko'rishi, eshitishi, tez chopishi va chidamliligini oldindan sezib, ularni boshqa hayvonlarga nisbatan o'ziga yaqinlashtirgan.



Hozirgi kunda inson va hayvonlarning bir turdagi kasalliklarini chuqur o'rganishga bo'lgan qiziqishning oritishi natijasida veterinariya onkologiyasida ham bir qator muxim masalalar o'z yechimini topa boshladi. Uzoq yillar davomida ushbu muammolarga yetarlicha e'tibor berilmay kelingan. Lekin hozirga kelib veterinariya soxasining rivojlanishi ayniqsa mayda hayvonlar patologiyasini o'rganishning chuqurlashashi natijasida itlar orasida tarqalgan onkopatologiya muammosi juda ko'p uchrashi hamda hal qilish yo'llarining murakkabligi jixatidan muhim muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Statistik ma'lumotlarga qaraganda itlar orasida o'smalarning tarqalish darajasi insonlarda uchrash darajasidan ham yuqori bo'lib xisoblanadi.

O'smalar muammosi nafaqat biologik, balki tibbiyot-veterinariya aspektida ham katta e'tiborga molik muammo bo'lib xisoblanadi. Chunki o'smalarni kelib chiqish sabablari hozirgi paytgacha to'liq aniqlanmagan va uni rivojlanish jarayonida organizmning qaysi tizimlariga qanday ta'sir qilishi onkologiya fani oldida turgan muxim vazifadir. O'smalar tabiatda keng tarqalgan bo'lib, nafaqat odamlarda, balki hayvonot olamining barcha turlarida, shu jumladan uy hayvonlarda ham keng uchrab turadi. O'smalar shakli va tuzilishi bo'yicha har xil, ammo kelib chiqishi va rivojlanishi, klinik ifodalanishi hamda organizmga ta'sir etishi bo'yicha yagona guruhni tashkil qiladi va shu bilan umumbiologik ahamiyat kasb etadi (J.Dobrev,1989; P.F.Terexov,1983; I.Grish, 1992).

It organizmining patologiyasida o'smalar nazariy va amaliy veterinariyaning murakkab muammosidir. Shulardan kelib chiqqan holda o'sma kasalligi bilan kurashish veterinariya mutaxassislari oldida dolzarb vazifa bo'lib turibdi. O'smalarning hayvon organizmiga umumiy ta'siri o'smaning joylashgan joyiga va uning yomon yoki yaxshi sifatli bo'lishiga ham bog'liqdir. Agar o'sma hayotiy muxim organlar atrofida yoki shu organning o'zida o'sgan bo'lsa, uning hayvon organizmiga ta'siri yana ham xavfli bo'lishi mumkin. Shuningdek o'smalarning o'sish tezligining yuqori darajada bo'lishi ham muxim ahamiyat kasb etadi.

O'smalarning patogenezi ham murakkab bo'lib, masalan, saraton patogenezi gipotezalaridan biri - Onkooksillarning hujayra membranasi va ichki kombinentlari

o'zaro bog'lab, birgalikda harakat qilib ko'payayotgan hujayralarning differensiyalanishini to'xtatadi, reseptorlarni modifikasiya qilib (o'zgartirib) hujayralarning to'g'rilovchi (boshqaruvchi) ta'sirlarga sezuvchanligini yo'qotadi, yuza antigenlar spektrini o'zgartiradi va oqibatda normal hujayra mutant hujayraga aylanib qoladi.

Adabiyot ma'lumotlariga ko'ra o'smalarning rivojlanishini 3-4 bosqichlariga kelib, u hosil bo'lgan to'qimaning markazidan boshlab parchalanish jarayoni boshlanadi. Buning natijasida u yerda zaxarli moddalar to'plana boshlaydi va organizmga so'rilib barcha organ va tizimlarni faoliyatiga ta'sir qiladi, shu jumladan nospetsifik himoya va immunologik tizimga ham yetarli darajada salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Bu esa organizmni himoya qobiliyatini susaytirib o'sma hujayralarini tarqalishiga olib keladi. Bundan tashqari o'smalarning turlariga qarab itlar organizmga ayniqsa ularning immun tizimiga ta'siri turlicha bo'lib, buning natijasida itning sog'ligida turli darajada o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun itlarning o'smalari immun tizimiga ta'sirini o'rganishni, immunologik ko'rsatkichlarni o'zgarishini aniqlashni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Hozirgi paytda nospetsifik rezistent reaksiyalarga alohida ahamiyat berilyapti, chunki bu sistema immunologik yot hujayralarni (shu jumladan mutant va o'sma hujayralarni) tanib, ularni yo'q qilishda muhim o'rin tutadi. Bunday himoyada asosan faollashgan makrofaglar, tabiiy killerlar, neyetrofillar va gumoral omillar (tabiiy antitanalar, interferonlar, interleykinlar) qatnashadilar. O'ziga xos immunologik himoya T va V limfositlar faolligi natijasida amalga oshadi.

Tanosil sarkoma itlar orasida keng tarqalgan kasallik bo'lib hisoblanadi, uni aniqlash va xirurgik yo'l bilan davolash asosiy maqsad bo'lib hisoblanadi.

Bundan quyidagi vazifalar kelib chiqadi:

1. Itlar orasida tanosil sarkoma kasalligini tarqalish darajasini aniqlash.
2. Tanosil sarkoma bilan kasallangan itlarga ertachi tashxis qo'yish.
3. Tanosil sarkoma aniqlangan itlarga operatsiya yo'li bilan davolash o'tkazish.

## 2. Adabiyotlar tahlili

O'smalar muammosi biologik fanlar qatorida hamda tibbiyot va veterinariya xodimlari nuktai nazarida katta qiziqish uyg'otib kelgan dolzarb muammolardan biridir. Bu muammoni hal qilish maqsadida ko'pgina soxa mutaxasislari ilmiy izlanishlar olib borib fan uchun kerakli bo'ladigan samarali yutuqlarga erishib, soxa rivojiga o'z xissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Hozirgi kunda xayvonlar organizmida kechadigan barcha turdagi patologiyalar orasida yomon sifatli o'smalar patologiyasi tibbiyot va veterinariya nazariyasi va amaliyoti uchun muhim va dolzarb muammo bo'lib kelmoqda. Hayvonlar organizmida kechadigan o'smalar patologiyasini odamlarda kechadigan o'smalar patologiyasi bilan taqqoslab bo'lmasa ham yomon sifatli o'smalar muammosi veterinariyada ham yetarlicha dolzarb muammo xisoblanadi. Qishloq ho'jaligi hayvonlarining o'sma bilan kasallanishi natijasida xo'jaliklarga katta iqtisodiy yetkaziladi, chunki bu kasallik bilan so'yilgan hayvonlarning go'shtidan zararlangan joylar olib tashlanadi, bundan tashqari hayvon va parrandalarning bosh sonini ko'paytirishga to'skinlik qilib maxsuldorligini kamaytiradi va ba'zi xolatlarda hayvon o'limiga olib keladi.

Hayvonlar organizmida sodir bo'ladigan blastomotoz jarayonlarni o'rganish muhim vazifa bo'lib, ayniqsa taqqoslash patologiya aspektida katta ahamiyatga ega. O'smalar tabiatda ko'p tarqalgan bo'lib, odamlar hamda barcha turdagi hayvonlarda, shu jumladan, qishloq ho'jalik hayvonlari, laboratoriya va yirtqich hayvonlarda uchraydi. Ularning shakli va to'zilishi hamda joylashish joyi har xil bo'lishiga qaramasdan o'sish qonuniyatlari, organizmga ko'rsatadigan ta'siri va klinik ifodasida ba'zi bir xilliklar ham bo'ladi. Odam va hayvonlarda uchraydigan o'smalar boshqa kasalliklardan farqli o'laroq yagona prinsipial guruh bo'lib, umumbiologik ahamiyatga ega bo'lib xisoblanadi.

Hayvonlar organizmida, ayniqsa itlarda saraton o'smalarining eksperimental sharoitlarda chaqirilib, ularning hosil bo'lish sabablarini va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish tibbiyotda keng qo'llaniladi. Bu esa odam va hayvonlarda umuman tirik organizmda ayrim o'smalar jarayonlarining kechish

qonuniyatlari, klinik ifodasi, kechishi hamda davolash va oldini olish muammolarini hal etish imkonini beradi. Shuning uchun itlar va boshqa hayvonlar o'smalarini o'zoq muddat klinik ko'zatish hamda organizmga ta'sirini o'rganish organizmdagi blastomoz o'sishning ayrim qonuniyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Odamlarda uchraydigan yomon sifatli o'smalarni kelib chiqishi qonuniyatlarini hayvonlar o'smalarini kelib chiqish qonuniyatlaridan alohida o'rganish mumkin emas. Hayvonlardan olingan natijalar odamlarda uchraydigan yomon sifatli o'smalar bilan kurashish poydevori bo'lib xisoblanadi. Shuni aytish lozimki, veterinariyada hayvonlarning saraton o'smalarini o'rganish tibbiyotdagi kabi keng rivojlanadi.

O'smalar asosan hayvonlar xayotining ikkinchi yarmida paydo bo'ladi va barcha turdagi hayvonlarda, shuningdek o'simliklarda ham uchraydi. Hayvonlar orasida o'smalarning tarqalishini yosh bilan bog'liqligini itlarda yaqqol ko'rish mumkin.

Yeaus1 (1991), P.F.Terexov (1983) ma'lumotlariga ko'ra veterinariya klinikasida qabo'l qilingan 2500 ta itlar orasida o'smalarni hayvon yoshiga qarab tarqalishini o'rganib, shunday xulosaga kelganki, o'smalari bo'lmagan itlarning o'rtacha yoshi 3,5 yilni tashkil qiladi, o'sma bilan kasallanganlari 8 yoshni tashkil qiladi. O'smalar bilan kasallanish olti yoshga borib keskin ko'payadi va shu darajada 10-13 yoshgacha davom etadi. Shunday qilib, o'smalar bilan kasallangan itlarning 50% ini 6-10 yoshliklari, 25%ni 5 yoshgacha bo'lgan itlar, qolgan 25% i 10 yoshdan kattalari tashkil qiladi. O'sma bilan kasallangan itlar 1-5 yoshlar orasidagi itlar guruhiga kiradi, 27% bir yoshgacha 5% i 10 yoshdan kattasini tashkil qiladi.

Yu.M.Vasilyev (1997) ta'kidlashicha, o'sma bilan kasallangan itlarni o'rtacha yoshi 3,8 yoshni tashqil qiladi.

N.Grish (1992) ma'lumotlariga ko'ra itlarda osteosarkoma bilan kasallanish o'rtacha yoshi 7,3 yosh, xondrosarkoma bilan kasallanish esa 5,4 yoshni tashkil qiladi. Shuning uchun sut bezi o'smalari bilan kasallangan hayvonlarni o'rganish

odam va hayvonlarda uchraydigan blastomoz jarayonlar negizini o'rganishga hamda davolash uchun yangi samarali dorilarni qo'llashga yordam beradi.

Blastomoz jarayoni asosida organizm hujayralarining o'zgarishi yotadi. Normal hujayralarning o'sma hujayralariga aylanish mexanizmi, rak muammosini hal qilishda asosiy omil xisoblanadi. Kanserojen transformasiya yo'li orqali normal hujayra o'sma hujayralariga aylanib o'ziga xos biologik xususiyatlarga ega bo'ladi, ayniqsa o'smani chegarasiz ko'payishi, rivojlanishi va o'sish uchun ular o'sma kurtagini hosil qiladi. Yetuklik bosqichiga yetmasdan rak hujayralari umumbiologik determinasiya qonuniyatiga buysunmasdan to'xtovsiz ko'payadi, shuning uchun o'smalarining o'sishida o'ziga xos avtonom kechishi ko'zatiladi. Hayvonlarda har xil organ va to'qimalarda o'smalar hosil bo'lishi juda ko'p uchraydi.

Yu.M. Vasilyev (1997) aytishi bo'yicha «Yomon sifatli o'smalar bu oddiy kasallik emas bu patologik jarayonlar guruhidir».

G.I. Abelevning (1997) ko'rsatishi bo'yicha o'smalar barcha hayvonlarda uchrashi mumkin, bu holat uni boshqa kasalliklardan farqlaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'smalar umumbiologik muammo bo'lib xisoblanadi. Ilgari barcha yaxshi va yomon sifatli o'smalar yagona termin «rak» deb nomlangan, rak bu - biologik hodisa, uni tushunish uchun barcha zamonaviy biologik fanlar qonunlariga tayanish lozim.

Soxa mualliflarining fikricha rak keng ma'noda o'ziga xos to'qimalarni o'sishi bilan bog'liq guruh kasalligi bo'lib xisoblanadi va quyidagi umumiy xususiyatlarga ega:

1. Notipik to'qimalarni keltirib chiqarishi va ular ko'prok yomon sifatli o'zgarmaydigan jihatga ega.
2. Organizm va to'qimalarda proliferasiya yo'li bilan to'xtovsiz o'sishi.
3. Ayrim darajadagi differensirovka, ya'ni ayrim normal morfologik va fiziologik xususiyatlarini yo'qotilishi.
4. Qisman yoki to'laligicha tashkillashishini yuqolishi.

5. Atrofdagi to'qimalarga o'sib kirishi va ularni parchalash.

Yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlardan oxirgi 2 tasi yomon sifatli o'smalarga xosdir.

### **2.1. Hayvonlar orasida o'smalarning tarqalishi**

Onkologiyada o'smalarning hayvonlar orasida tarqalishini aniqlash uchun 10 ming yoki 100 ming bosh hayvonlarni tekshirish maqsadga muvofiq va faqat shu orqaligini hayvonlar orasida o'smalarning qay darajada tarqalganligini bilish mumkin.

Samarqand qishloq xo'jalik instituti Veterinariya, zootexniya va qorako'lchilik fakulteti "Hayvonlar anatomiyasi, fiziologiyasi, jarroxlik va farmokologiya" kafedrasida qoshidagi xirurgik klinikasida o'tgan 5 yil davomida 553 it tekshirilib ular orasidan 3 tasida (0,54%) yomon sifatli o'smalar aniqlangan. Shuningdek 10 yil davomida 841 it gavdasi patologoantomik yorib ko'rilganda ularning 5% turli xildagi o'smalar oqibatida o'lganligi ma'lum bo'ldi. O'smalar hayvonlarda uchraydigan barcha kasalliklarning 1% ni tashkil qiladi, ya'ni har 100 ming kasal hayvonlardan 200 tasi o'sma bilan kasallangan bo'lishi mumkin. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra 13186664 bosh shoxli hayvonlar orasida 8268 tasida o'sma aniqlangan, yana 32,374% hayvon o'smalari «xungo» guruxiga kiritilgan. Agar ularning yarmi o'sma bo'lsa, bu 0,185% ni tashkil qiladi.

K. Lyeiyepyeg ma'lumotlariga ko'ra AQSh da asosan maxsuldor hayvonlar orasida limfa tizimi va ko'z raki ko'p tarqalgan. Go'shtning sifati pasayishi oqibatida 1961 yili AQShda iktisodiy zarar 2,2 mln dollarni tashkil qiladi.

G. Miiior, (1977); Yu. Dobrov, R. Petrov (1988); G.I.Abelev, (1997) larning ta'qidlashlaricha Niderlandiyada o'smalarning tarqalishi quyidagicha: har bir 100 ming bosh yirik shoxli hayvonlar va otlar orasidan 60 ta yirik shoxli qoramollar va otlardan 110 tasi o'sma bilan kasallangan. bu ko'rsatkich AQSh da 207 bosh qoramol va 50,6 bosh otni tashkil qiladi.

I.F. Rozgin 19 ming itni tekshirish natijasida har 10 ming itdan 23 tasi o'sma bilan kasallanganligi aniqlangan.

S.A. Garikov (1967) 2092 hayvonni tekshirish natijasida quyidagi ma'lumotlarni olgan: o'smalar bilan kasallanish itlarda - 30,3 %, yirik shoxli hayvonlarda - 10,6 %, otlarda - 6,3 %, qo'ylarda - 1,6 % va cho'chkada - 0,1 % ni tashkil qiladi.

I.Ye Laptev (1973) ma'lumotlariga ko'ra 1954 dan to 1971 yilgacha o'tkazilgan gistologik tekshirishlar asosida o'smalar quyidagicha tarqalganligi aniqlangan: itlarda - 22,6% (338 tada), otlarda - 9% (205tada) va cho'chkada - 0,12% (1901 tada).

## **2.2. Hayvonlar uchraydigan o'smalarning klinik diagnostikasi**

Kasallikni o'z vaqtida samarali davolash tibbiyotning muhim vazifalaridan biridir. Bu onkologiyada ham muhim ahamiyatga ega, chunki xavfli o'smalarni davolash natijalari kasallikni o'z vaqtida turi aniqlashga bog'lik. Hayvonlarda yomon sifatli o'smalarni aniqlash juda murakkab vazifa bo'lib xisoblanadi. Ayniqsa o'smalar ichki organlarda bo'lgan paytlarda ularning diagnostikasi juda murakkab. Chunki o'smalarning rivojlanishi davrida og'riq sezilmaydi va ularning klinik belgilari namoyon bo'lmaydi. Shuning uchun kasal hayvonni birlamchi tekshirish paytida ularda o'sma paydo bo'lganligini aniqlab bo'lmaydi. Faqatgina suyak o'smalarining boshlang'ich bosqichlarida hayvonlar oyoqlari harakat funksiyasi bo'ziladi va ularda oqsash paydo bo'ladi. Agar o'smalar terida, oyoqlarda, yelinda, jinsiy organlarda, bosh, tanada bo'lsa diagnoz qo'yish oson kechadi, faqatgina o'z vaqtda davolashni olib borish maqsadga muvofiq. Ayrim paytlarda hayvon egalari loqaydlik va ishonchsizlikka yo'l qo'yib, o'smalarni davolash qiyin kechishi va ko'pincha yaxshi natija bermasligini baxona qilib, veterinariya vrachlariga kech murojat qiladilar.

Tibbiyot va veterinariya, jumladan onkologik muassasalarning amaliy ishlariga so'nggi yillar ichida sekin-asta yangi diagnostika texnikalar va tekshiruv usullari tadbif etilmokda, ular orqali xavfli o'smalarni o'z vaqtida anikdash darajasi kengayadi.

O'smalarga diagnoz qo'yish juda murakkab va shu bilan birga muhim vazifa bo'lib albatta rejali ravishda olib borilishi kerak. Dastlab hayvon egasidan anmnez

ma'lumotlari so'rab olinadi va taxlil qilinadi. Bunda o'smaning paydo bo'lgan vaqtini, o'sish darajasi va tezligini aniqlanadi. Yomon sifatli o'smalarni tekshirish vaqtida asosan uning organizmda qaysi to'qimasidan o'sib kelganligini, o'smaning xarakterini, uning tarqalishini aniqlash lozim. Ayrim o'smalarning yelin, siydik-jinsiy organlarida o'sishi bir maromda emas, u bir kuchayib keyin regressiyaga ham uchrashi mumkin. Bu ko'pincha jinsiy sikllarga bog'liq, ya'ni organizmda ayrim gormonlarning miqdori oshib ketishi natijasida tezlashishi mumkin. Hayvon egasidan ma'lumot olganda hayvonning burnidan, qulog'idan, qindan, prepusiya xaltasidan, orka chiqaruv teshigidan oqadigan patologik suyuqliqlar chiqishini aniqlash uchun mayda hayvonlarda (it, mushuk) kuyga kelish, uning paydo bo'lish vaqtini e'tiborga olish kerak. Qabo'l qilish paytida hayvonning semiz - oriqligi ham e'tiborga olinadi, chunki o'smalarda hayvonlarda rak kaxeksiyasi rivojlanadi.

Bunlardan tashqari o'smani o'sishiga ham katta e'tibor berish lozim, yomon sifatli o'smalar progressiv kattalashib ketishi mumkin. Agarda o'sma tez o'sib, keyin o'sishi sekinlashib qolsa, o'smada malignizasiya jarayoni kechishini bildiradi.

Shuni qayd etish lozimki, kasallik simptomlari boshqa ko'pgina o'sma bo'lmagan kasalliklarda ham uchrashi mumkin. Shuning uchun o'sma diagnozini qo'yishda bir qator, maxsus tekshiruv usullarini qo'llash kerak. Rentgenologiya usuli eng qadimgi usul bo'lib, o'smani aniqlashda doimo qo'llaniladi. Radionuklid usul teri, limfa tugunlari, o'pka, suyak va buyrakni tekshirishda qulay. Fibroendoskopik asboblarni amaliy onkologiyaga jadal kirib kelib, barcha bo'shliqli a'zodagi o'smalarni tekshirishda katta yordam bermokda. Parenximatoz a'zo o'smalarining zamonaviy diagnostikasini ultratovush (sonografiya) usulisiz tasavvur etish qiyin. So'nggi paytlarda onkologiyada o'sma markerlarini aniqlash, kompyuter va magnit-rezonans tomografiyalarni tashxis qo'yish uchun qo'llash miqyosi tezlik bilan kengaymoqda.

O'sma kasalliklariga diagnoz qo'yish vaqtida quyidagi tekshirish usullaridan foydalanish mumkin



1. Ko'rikdan o'tkazish usuli: bu usul bilan quyidagilarni aniqlash mumkin: hayvonning umumiy holati, o'smaning joylashgan joyi, shakli, katta-kichikligi, soni, shilliq pardalar holati, rangi.

2. Paypaslash usuli: o'sma atrofidagi to'qimalardagi mahalliy harorat, og'riq, o'sma qatlamda hosil bo'lgan to'qimalarning holati, fluktuasiya va krepatasiya tovushlari, limfa tugunlarining holati, metastazlarning bor-yo'qligi.

3. Punksiya (igna sanchish) usuli – asosan differensial diagnostika uchun qo'llaniladi. Chunki o'smalarni gematoma, limfaekstravazat, dabbadan farqlash kerak. Gematomada qon chiqadi, limfoekstravazatda sariq rangdagi suyuqlik xalta, teshik va unga tushgan organlar bo'ladi.

4. Gistologik usul – operatsiya o'tkazish jarayonida olib tashlangan o'sma patogistologik laboratoriyaga yuboriladi. U yerda gistologik analiz o'tkazib, o'smaning turi aniqlanadi va qo'yilgan diagnoz aniqlanadi.

5. Auskultasiya va perkussiya usullari: agarda hayvonda nafas olish o'zgarsa bu usullar yordamida quyidagilar aniqlanadi: tovushlarning o'zgarish chegaralari, vezikulyar nafas olishning kuchayishi.

6. Rentgenografiya usulida tekshirish ham yaxshi natija beradi, unda yumshoq va qattiq to'qimalardagi o'smalarni aniqlash mumkin.

7. Rektoskop yordamida to'g'ri ichak o'smalarini aniqlash.

Ko'zdan kechirish usuli yordamida quyidagilarni aniqlash mumkin:

O'smalarni aniqlashda rentgenografiya usulidan foydalanish yaxshi natija beradi. Ayniqsa, ko'krak bo'shlig'idagi organlarni tekshirishda, bunda o'smaning joylashish joyini, uning shaklini, katta - kichikligini atrofidagi to'qimalariga ta'sirini aniqlash mumkin.

Bulardan tashqari tibbiyot va veterinariya amaliyotida o'smalarga diagnoz qo'yishning spesifik usullari ham mavjud bo'lib, ularga gistologik tekshirishlar, biopsiya usuli va punksiya qilish kabi usullar kirib bu usullar o'smalarni dastlabki bosqichlardanoq aniqlash imkoniyatini beradi. Shu bilan birgalikda olingan o'sma hujayrasining turi hamda yaxshi yoki yomon sifatli ekanligi ham tashxis qilinadi.

XX asrga kelib veterinariya onkologiyasining rivojlanishi yangi pog'onaga chiqdi. Bu asrga kelib olimlar tomonidan o'smalarning etiologiyasi, diagnostikasi, davolash hamda oldini olish borasida ko'pgina muhim ahamiyatli natijalarga erishildi. Onkologiya amaliyotida o'sma kasalliklarida diagnozni tasdiqlash maqsadida diagnostik operatsiyalar o'tkazish maqsadga muvofiq. Bunda o'sma turini aniqlashdan tashqari uni jarroxlik yo'li bilan olib tashlashni amalga oshirish mumkin. Ayrim xollarda diagnostik operatsiyalar, davolash operatsiyalariga aylanib ketadi. O'smalarni to'liq aniqlash uchun gistologik tekshirishlar bajarish lozim. Bu eng oxirgi va aniq diagnoz qo'yish usuli bo'lib xisoblanadi. Oxirgi paytda olimlar tomonidan taklif etilgan immunologik usuldan foydalanish ham o'smalarga to'liq va ishonchli diagnoz qo'yishda samarali natijalar bermoqda.

N.Ye.Osipov va boshqalar (1986) bo'yicha o'smalar diagnostikasida serologik diagnostika usulini qo'llash yaxshi natija berishi katta e'tiborga sazovordir. Yomon sifatli o'smalarni aniqlashda periferik qonni gematologik tekshirilganda yordamchi usul sifatida qo'llanishi mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki o'smalarni aniqlashda har xil klinik tekshirish usullaridan foydalanish yaxshi natija beradi va ularni ishonchli diagnostika qilishga yordam beradi.

### **2.3. Hayvonlarda o'smalarni oldini olish va davolash bo'yicha umumiy takliflar**

Qadimgi vaqtlardan beri insonlar saraton kaslligini davolash usullarini izlab kelganlar. Turli xildagi o'simliklar va hayvon tabiatli moddalar, oddiy minerallar va qimmatbaho toshlar, qizigan temir va o'tkir pichoq kabilar qo'llanib kurilgan, biroq xanuzgacha xavfli o'smalarning barcha turidan to'la xalos bo'lish muammosi xanuzgacha yechilmay qolyapti. Oxirgi o'n yilliklar mobaynida onkologiya soxasida ko'pgina yutuqlarga erishilganligiga qaramay, onkologiya bemorlarning faqatgina 50% ini saklab qolish mumkin bo'lyapti. Buning asosiy sabablari birinchidan, o'sma jarayonining biologik xususiyatlari (birlamchi o'chokda o'sma hujayralarining to'xtovsiz o'sishi, millionlab limfa va kon aylanish sistemasi bo'ylab barcha a'zolarga tezda tarqalishi va xar bir o'sma hujayrasining avtonom xayot kechirishi, shuningdek yangi o'sma tugunini hosil

kilishi) bo'lsa, ikkinchidan o'smaning yashirin davrida, ya'ni undagi hujayralar miqdori xali 1 mlrd (1g) dan kam bo'lganida aniqlovchi ishonchli vositalarning yetarli emasligidir. Shu sababli onkolog-shifokorning klinika amaliyotida, mahalliy tarqalgan yoki umumiy tarkalgan kasallik bilan ish olib borishiga to'g'ri keladi. Saraton kasalligini davolash tarixini taxdil qilish shuni ko'rsatadiki, avvalo hamma yerda o'smaga qarshi kuhash maxalliy ta'sir etadigan usullardan boshlangan, keyinchalik unga umumiy ta'sir etish yo'llari topilgan. Aniq davolash usullari ro'yxatiga quyidagilar kiradi:

<i>Maxalliy ta'sir</i>	<i>Umumiy ta'sir</i>
1. Xirurgik davolash	1. Kimyoterapiya
2. Kriodestruksiya	2. Gormonal terapiya
3. Nur terapiyasi	3. Immun terapiya
4. Mahalliy gipertermiya	4. Umumiy gipertermiya

O'sma kasalligi bilan kurashish murakkab va qiyin jarayondir. Yuqorida ta'kidlanganidek ularni keltirib chiqaruvchi sabablarning turli tumanligi eng asosiy omil bo'lib xisoblanadi. Bunda o'smalarni daslabki bosqichlardananoq aniqlash, tekshirish va kerak bo'lsa davolash tadbirlari kiradi. Xizmat itlari saqlanadigan pitomniklar sharoitida o'smalarga qarshi kurashishning asosi itlarni despanserizasiya ko'rigidan o'tkazish bo'lib, unda o'sma bilan kasallanagan itlar mavjudligini aniqlashga, ularning aniq va erta diagnostikasiga, blastomoz jarayonining metastazlashganligi, hayvonning umumiy xolati va kasal hayvonlarni davolashda uning xo'jalik uchun qimmatligi aniqlanadi.

Hozirgi paytgacha o'smalarni polietiologik kelib chiqishi to'g'risida to'liq bilimga ega bo'lmaslikda uning rivojlanish mexanizmi murakkabligi va erta aniqlash qiyinligi yotadi. Hozirgi zamonaviy klinik tekshirishlar va hayvonlarda o'tkazilgan tajribalardan foydalanish rak tabiatini aniqlashga yordam beradi.

O'smalarni davolashning zamonaviy tamoyillari har xil: ular jarroxlik usullari, nurlantirish va dori vositalar ko'llashga asoslangan. Oxirgi yillarda klinik immunoterapiya usuli ishlab chiqilgan bo'lib onkologiya amaliyotida keng

qo'llanilmoqda. O'smalarning kelib chiqishi va rivojinishi organizm holati va tashqi hamda ichki omillarning ta'sir qilishi bilan bog'liq.

O'smalar patogenezini tushunish omili patologik o'choqqa mahalliy ta'sir qilishni inkor etmaydi. Aksincha, barcha davolash usullarini o'smaga qarshi yo'naltirish lozim, chunki agarda o'smani davolashni iloji bo'lmasa u progressiv kattalashib hayvon o'limiga olib keladi. O'smani boshlang'ich davrida aniqlash va uni to'lig'icha jarroxlik yo'li bilan olib tashlash hayvon sog'ligini tiklash imkonini beradi. Bundan o'smalarni davolash terapiyasining asosiy qonuni kelib chikadi. O'sma kasalliklarini davolash uning barcha elementlarini yo'qotish bilan bog'lik. Bundan tashqari o'sma kasalliklarini davolashning muvaffaqiyati ularni radikal usul bilan olib tashlash bilan bir qatorda o'z navbatida organizmni himoya funksiyalarini oshirishga qaratilgan yordamchi terapevtik davolash muolajalarini ham qo'llash xisoblanadi.

Veterinariya amaliyotida o'smalarni jarroxlik usuli bilan davolash eng asosiy davolash usullaridan bo'lib xisoblanadi. Lekin jarroxlik usulini qo'llash natijasida olinadigan natijalar hamma vaqt ham yuqori samara bermaydi. Nurlantirish terapiyani qo'llash ham veterinariyada keng tarqalgan. Bunda o'sma nur ta'sirida yo'q qilinadi. Rentgenoterapiyani ko'llash amaliy ahamiyatga ega emas, chunki uni o'tkazish texnik jihatdan nafaqat katta balki mayda hayvonlarda ham ancha murakkab bajariladi. Lekin shuni ta'kidlash lozimki, itlardagi jinsiy organlarining alveolar (transmissiv) sarkomasi rentgen nurlariga ancha sezuvchan va ularning natijasida o'sma tez regressiyaga uchraydi.

Jarroxlik usulida davolashning u yoki bu turi va xajmi o'sma jarayonining bosqichiga, o'sish shakliga, a'zoda joylashishiga, gistostrukturasiga, uning differensiyalanish darajasiga, shuningdek hayvonning umumiy axvoliga bog'liq. O'sma jarayonining bosqichi jarroxlik operasiyasining turi va xajmini tanlash yoki operasiyadan bosh tortishning asosiy mezonidir.

### 3. Shaxsiy tekshirishlar

#### 3.1. Material va tekshirish uslublari

Tajribalar Samarqand qishloq xo'jalik instituti Hayvonlar anatomiyasi, fiziologiyasi, jarroxlilik va farmakologiya kafedrasida Xirurgiya klinikasida bajarildi.

Tekshirish materiallari va uslublari sifatida tanosil sarkoma bilan kasallangan itlar tekshirish materiali bo'lib xizmat qildi.

Tajribalarni o'tkazish jarayonida bizlar quyidagi usullardan foydalandik:

**Anamnez** (anamnesis) - Hayvon egasi yoki hayvonga qarovchi shaxs bilan o'tkazilgan savol-javobdan kasal hayvon to'g'risida yig'ilgan ma'lumotlar majmuasiga anamnez deb yuritiladi. Anamnez ikki qismdan iborat bo'ladi:

1. Kasal hayvonning hayoti to'g'risidagi anamnez.

2. Kasallikning kelib chiqish tarixiga oid anamnez.

Kasal hayvonning hayoti to'g'risidagi anamnezni o'rganish, hayvonning qanday sharoitda kasal bo'lib qolganligini aniqlashga imkon yaratadi. Anamnezning bu qismida qo'yidagi savollarga javob topish kerak:

a) mazkur xo'jalikda hayvonning qachondan beri yashab kelayotganligi (agar sotib olingan bo'lsa qachon sotib olinganligini);

b) hayvon saqlanadigan joyning holati va uning qayerda boqilishi;

v) hayvonning boqilish sharoitlari, ya'ni yem-xashak miqdori va sifati;

g) hayvon mahsuldorligi va undan foydalanish va hokazolar.

Kasallikning kelib chiqish tarixiga oid anamnezni o'rganish, ushbu kasallikning kelib chiqishiga taaluqli ma'lumotlarni aniqlashga imkon yaratadi. Bu qo'yidagi savollarni o'z ichiga oladi:

a) kasallikning qachon aniqlanganligi va u qanday paydo bo'lgani, ya'ni birdanigami yoki asta-sekinlik bilan vujudga kelganligi. Bunda kasallikning kechishi (o'tkir yoki surunkali) va shu bilan birga qaysi organlar shikastlanganligi aniqlanadi.

b) kasallik qayerda va qanday sharoitda vujudga kelganligi.

Kasal hayvonda klinik belgilardan cho'loqlanish, ko'rish qobiliyatining qisman pasayishi, buyinning qiyshayishi va boshqalar bo'lib, to'qimalarda tashqi

shikastlanish belgilari bo'lmaganda kasallikning qayerda va qanday sharoitda vujudga kelganligini bilish juda muhim hisoblanadi. Har qanday aniq sharoitda ham xirurgik tekshirish usullarini qo'llash talab qilinadi. Ayrim hollarda kasal hayvonning yuqumli va yuqumsiz kasallik-lar bilan kasallanmaganligini yoki zaharli moddalar bilan zaharlan-maganligini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki yuqoridagi kasalliklar oqibatida turli xirurgik kasalliklar: tuyoqning revmatik yallig'lanishi, tendinit, tendovaginit, bursit, artrit va boshqalar kelib chiqishi mumkin.

v) kasal hayvon shifoxonaga (klinikaga) keltirilganiga qadar qanday davolanganligi, davolash uchun nima qo'llanilganligi va kim davolaganligini bilish kelgusida davolash usullarini ishlab chiqish uchun muhim ahamiyatga ega.

Albatta anamnez uchun to'plangan ma'lumotlar hamma vaqt to'g'ri bo'lavermaydi, bu ko'pincha hayvonni olib kelgan odamning kasallik to'g'risida yaxshi tushunchaga ega bo'lmasligi, ba'zan esa kasallikni qasddan yashirishi bunga sabab bo'ladi.

Shunday qilib, anamnez hayvonni tekshirishdan oldingi holatini xarakterlovchi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Anamnez to'g'risida obyektiv fikr yuritish uchun anamnezni klinik tekshirishda olingan ma'lumotlar bilan solishtirib ko'ra bilish juda muhim. Hayvonni boquvchi xodim bilan o'tkazilgan suhbatda, olingan hamma ma'lumotlarning aniqligini tekshirib ko'rish kerak. Buning uchun anamnez ma'lumotlariga tanqidiy nuqtai nazardan qarab, kasallikni aniqlashda klinik tekshirish natijalariga ko'proq tayanish maqsadga muvofiqdir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, anamnezga doir ma'lumotlar to'la-to'kis olingan bo'lishi kerak. Bekamu-kust to'plangan anamnez, kasal hayvonga diagnoz qo'yishda anchagina yordam beradi davolash va oldini olish chora-tadbirlarini muvaffaqiyat bilan tashkil etishni osonlashtiradi.

**Umumiy tekshirish.** Kasal hayvonlarni umumiy tekshirish, ularga diagnoz qo'yishda muhim ahamiyatga ega. Ayrim hollarda umumiy tekshirish usullari

orqali, sirdan ko'zdan kechirish yo'li bilan kasal hayvonni osongina payqash va kasallik belgilarini topish mumkin.

Umumiy tekshirish gabbitusni aniqlash, hayvonning terisi, limfa tugunlari, shilliq pardalarini tekshirib ko'rish va haroratini o'lchashdan iborat. Bundan tashqari umumiy tekshirishlarda hayvonning zoti, jinsi, yoshi, hayvon holati, vazni va uning xo'jalik bahosi ham e'tiborga olinishi kerak.

Hayvonlarning turli zotlarida xirurgik kasalliklar turlicha namoyon bo'lishi mumkin. Bug'oz hayvonlarda diagnostik tekshirish usullari, juda ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi kerak. Hayvonlarning ayrim kasalliklari ularning nasliga va tusiga bog'liqligi tasdiqlangan. Hayvonlarning yoshi kasalliklarni aniqlashda, kasallik oqibatini oldindan ayta bilishda va davolashda katta ahamiyat kasb etadi. Karsinoma, katarakt (ko'zining parda bilan qoplanishi), yumshoq tog'aylarning suyak-lashuvi asosan ko'proq qari hayvonlarda uchraydi. Yosh hayvonlarga narkoz qari hayvonlarga qaraganda tez ta'sir qiladi, shu bilan birga yosh hayvonlar operatsiyalarni yaxshi ko'tara oladi.

Dori, narkotik va og'riqsizlantiruvchi moddalarning miqdorini belgilashda hayvonning tana og'irligi muhim ahamiyatga ega.

Katta vaznli hayvonlarda bir qator kasalliklarning, xuddi shu turga mansub bo'lgan kichik vaznli hayvonlarga qaraganda tuzalish ehtimoli (prognozi) kamroq bo'ladi. Hayvonni klinik tekshirishda hamma vaqt uning umumiy holatiga, ya'ni semiz-oriqligiga, temperamentiga (xulq-atvori), tana tuzilishiga, tanasining fazodagi vaziyatiga, konstitusiyasiga e'tibor berish kerak. O'rtadan yuqori semizlikdagi mustahkam konstitusiyali hayvonlarda, jarohatning bitishi va boshqa jarayonlar yaxshi kechishi kuzatiladi. Uzoq vaqt davolashga to'g'ri keladigan qari va mahsuldorligi past bo'lgan hayvonlar, sarf qilingan xarajatlarni qoplay olmaydi va ular go'shtga topshiriladi.

**Ko'rish (inspectio).** Anamnez ma'lumotlari yig'ilganidan so'ng hayvonni umumiy klinik tekshirish, qaysiki ko'zdan kechirish boshlanadi. Ko'rik kunduzi tabiiy yoki sun'iy yorug'likdan foydalanib o'tkaziladi. Bu ish muayyan tartibda o'tkaziladi, avval hayvonning boshi, bo'yni, so'ngra ko'krak qafasi, tana qismi,

qorni, yelini, yorg'oq, prepusiya, chanog'i, oyoqlari qarab chiqiladi. Tananing juft qismlari taqqoslab ko'zdan kechiriladi, bu patologik uchoqda tashqi klinik belgilar kamroq kuzatilganda asqotadi. Hayvon harakatanganda va tinch turgan holatida ko'zdan kechiriladi. Uning holatiga (holsizlanish, qo'zg'alish), tana vaziyati, teri va shilliq pardalar ko'rinishiga va boshqa ayrim bir organ kasalliklaridan xabar beruvchi (oqsash, ko'rish qobiliyatining yo'qolishi ) yoki mahalliy o'zgarishlarga (dermatit, ekzema, o'sma, ko'z shox pardasining xiralashishi, qalinlashishi) e'tibor berish kerak.

Ko'rik asosida zararlangan organ yoki shikastlangan tuqimaning o'lchami, shakli, rangi va yuzasining holati (quruq, ho'l, tekis, g'adir-budir, qon bilan qoplanganligi, yiring, qora-qutir) oqsash (uning turlari) va boshqalar aniqlanadi.

Kasal hayvonlar diqqat bilan kuzatilsa, kasallikning kechishi va klinik manzarasini bilib olish hamda diagnoz qo'yish va samarali davolash vositalarini belgilash mumkin bo'ladi.

**Palpasiya (palpatio)** - qo'l bilan paypaslab ko'rish. Bu usul yordamida mahalliy harorat, og'riq reaksiyasi, patologik o'choqning joylashgan joyi, uning harakatchanligi va tarangligi, teri va teri osti kletchatkasining holati, arteriya pulsini, suyuqlikning sho'lqillashi, g'ijirlash va boshqa klinik belgilar aniqlanadi. Bunda patologik o'choqdagi haqiqiy og'riqni, suyak va paylardagi fiziologik reflekslardan ajrata bilishni o'rganish lozim, aks holda uni og'riq reaksiyasi deb adashish mumkin. Mabodo adashilsa juft organlar taqqoslanib tekshiriladi.

### **3.2. Itlarda jinsiy a'zo o'smalarini keltirib chiqaruvchi ekologik omillar va ularning uchrash darajasi**

O'smalarni bir hayvondan ikkinchisiga yuqtirish mumkinligi I.A. Novinskiy (1876) tomonidan birinchi marta aniqlandi. Bu o'smalarning kelib chiqishi viruslarga bog'liq ekanligini ta'kidlagan. Lekin o'smalarning kelib chiqishiga boshqa - fizikaviy, kimyoviy va gormonal nazariyalari o'z ahamiyatini yo'kotganlar va hozirgi paytda ular kanserogen nazariyaning asosini tashqil qiladilar.



Oxirgi yillar bu soxada ilmiy tekshirish institutlarida katta ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy tekshirishlar olib borilmokda. Ayniqsa rak genetikasi va onkogen viruslar sohasida yillar davomida o'smalar virus tabiatli ekanligi muhokama qilinib kelinmokda. Lekin bu masalada bir fikrga kelinmagan.

Hozirgi paytda onkologlarning ko'pchiligi o'smalarning kelib chiqishida atrof muxit ta'siri katta ahamiyatga ega deb fikr yuritadilar. Hayvonlarda o'tkazilgan tajribalarda ko'rsatilishicha o'smalar hosil bo'lishiga kanserogenez, ya'ni kimeviy, fizikaviy nurlanish omillarning ta'siri juda katta ahamiyatga ega. Tashqi muxitdagi konserogen moddalarning ta'siridan ayrim o'smalarning kelib chiqishi aniqlandi. Ekzogen kanserogenlardan tashqari konserogenr gormon, oqsillar ta'sirida ham o'smalar kelib chiqishi aniqlangan. Shunday qilib o'smalarning kelib chiqishida ko'p ta'siroqli omillar katta rol o'ynaydi degan xulosaga kelish mumkin. Kanserogen moddalarni organizmga o'zoq vaqt ta'siridan ko'p o'smalarning o'sishi aniqlangan. Epizoologik va eksperimental ma'lumotlar asosida rakni urganish buyicha Xalkaro Agentligi tomonidan 1982 yilda kanserogen omillarning kuyidagi ruyxati taklif kilingan.

Ya'ni ularga: - margimush va uning birikmalari; - asbest; - benzol; - benzpiren; - xrom va uning ba'zi bir birikmalari;- diyetilstil bestrol; - sarkolizin;- korakuya, katron, mineral yoglar;- vinilxlorid;- xlorambutsil; - siklofosfamid; - kimyoviy davolash uchun preparatlar (prokarbazin, vinkristin va prednizolon); - estrogenlarning kondagi moddalar bilan birikmalari; - teri, rezina va payafzal sanoati; - yog'ochsozlik va mebel sanoatlari.

Bu ro'yxatda yangi onkologik va eksperimental izlanishlar natijalari asosida yangi kanserogen moddalar ro'yxati kiritilishi mumkin. Jadvalda faqat hayvonlarda yaxshilab tekshirilgan kimyoviy kanserogen moddalar kiritilgan. Dunyoda 5 mln ga yaqin kimyoviy modda bo'lib, ulardan atigi 8 mingga yaqinining kanserogen faolligi o'rganilgan. Kimyo sanoati va yangi birikmalar sintezi rivojlangani sari kimyoviy kanserogen moddalar ro'yxati kengayishi kutilmoqda. Fizikaviy omillarga turli xildagi ionlovchi nurlar (rentgen va gamma nurlari, atomning elementar zarrachalari, neytronlar alfa va beta zarrachalari) quyoshning

ultrabinafsha nurlari shuningdek, to'qimalarning mexanik va termik jaroxatlari kiradi. Rentgen nurlarning kanserogenlik xususiyati 1902 yilda himoya qo'lqopisiz ishlagan rentgenologning kaftida teri raki paydo bo'lishi bilan tasdiklanadi. Keyinchalik matbuotda suyak siliga intensiv rentgen nurlari bilan davo qilingandan so'ng va radio mezatoriy va torastrast moddalar ichishga buyurilgandan keyin hosil bo'lgan suyak sarkomasi to'g'risidagi ma'lumot chop etildi. Radioaktiv moddalarga boy bo'lgan rudalarni qazuvchi ba'zi shaxtyorlarda o'pka raki rivojlangan.

Biologik omillar ham o'smalar paydo bo'lishida muhim ahamiyatga ega. 1910 yilda P.Raus o'sma filtratini inyeksiya qilish yul bilan kasallangan tovuqdan sog'lom tovuqqa sarkomani o'tkaza oldi. Keyinchalik hayvonlar (tovuq, quyon, sichkon, it va xokazolar) sarkomani qo'zg'atuvchi bo'lib, oddiy yorug'lik mikroskopida ko'rinmaydigan viruslar ekanligi fanda aniqlandi.

Hozirgi kunda saratonning virus nazariyasi o'smalar etiologiyasining eng rivojlangan aspektidir. Viruslar tabiatda keng tarqalgan bo'lib, ularning hammasi ham kanserogenlik xususiyatiga ega yemas. O'sma chaqiruvchi viruslar shartli ravishda 2 guruhga bo'linadi: 1-guruh RNK (ribonuklein kislota) li viruslar. Bular xavfli o'smalarning tabiiy qo'zg'atuvchilaridir. Ularga hujayra bilan aloqa qilish uchun maxsus sharoit kerak yemas. 2-guruh DNK (dezoksiribonuklein kislota) li viruslar. Ular normal hujayrani o'sma hujayraga faqat laboratoriya sharoitida va ularning tabiiy tashuvchilari (egalari) bo'lmagan hayvonlarda aylantira oladi. Virusning kanserogen ta'siri bu normal hujayraga kirib o'zining genetik materialini hujayra yadrosi ichidagi DNK bilan birlashtirish va unga xujayinlik qilishdir.

Endogen omillar ularni irsiy va irsiy bo'lmagan guruhlarga ajratish mumkin.

1. Irsiy omillar:

a) Saraton hosil qiluvchi genning nasldan-naslga o'tishi (retinoblastoma, nefroblastoma, neyroblastoma);

b) Saratonga moyillikni oshiruvchi genning nasldan-naslga o'tish (pigmentli kserodermiya, ichakning oilaviy polizi, immunitet tanqisligi, sut bezi, tuxumdon, o'pka, me'da, o'tkir leykemiya va melanoma saratonlarga moyillik).

## 2. Irsiy bo'lmagan omillar:

a) Kimyoviy kanserogenlarning endogen sintezlanishi. Yuqorida aytib o'tilganidek, ba'zi moddalar almashinuvining bo'zilishi (masalan, triptofan va tirozin aminokislotalarining) kanserogen faollikka ega bo'lgan metabolitlar paydo bo'lishiga olib keladi. Bo'lar endogen kanserogenlar deyarli va ichki a'zolarida xavfli o'smalar rivojlanishiga sababchi bo'lishi mumkin.

b) Neyroendokrin sistemaning noto'g'ri ishlashi natijasida kelib chiqqan gormonal gomeostazning bo'zilishi o'smalar rivojlanishining ikkinchi sababchisi bo'lishi mumkin. Masalan, ayrim hollarda organizmda estrogenlar miqdorining ko'payib ketishi sut bezi va endometriyada, tireotripping ko'payishi qalqonsimon bezda, gonadotropning ko'payishi tuxumdonda o'smalar paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Ayrim olimlar o'smalarni kelib chiqish sabablari irsiyat determenantlikga bog'liq degan fikrni bildirmokdalar. Ayrimlari rakni tug'ma yoki irsiy kelib chiqishini bir xil deb xisoblaydilar. Inbriding tekshirishlarni o'tkazish natijasida ayrim olimlar genetik nazariyani qo'llab quvvatlamokdalar, ular rakni mutloq irsiy kasallik deb xisoblaydilar.

P.F. Terexov (1983) ma'lumotlariga ko'ra, ayrim paytda hayvon va baliqda o'smalarga nisbatan irsiy determinasiya ko'zatiladi, lekin ko'pincha ularni kelib chiqishiga moyiligi borligi aniqlandi.

M.I. Kuzin (1995) tekshirishi bo'yicha ayrim zotdagi yirik shoxli mollarda ko'z karsinomasiga irsiy moyillik aniqlangan bo'lib, shu bilan birgalikda kasallik hosil bo'lishiga tashqi muxit ta'sirotlari quyosh nuri va oziqlantirish miqdori ham ta'sir qiladi degan fikrni bildiradi.

Ko'pgina ilmiy izlanishlar natijasida irsiyat o'smalarning kelib chiqishiga va rivojlanishida katta rol o'ynashi isbotlangan. Lekin irsiyat omillari o'zgaruvchan bo'ladi. O'smalarni keltirib chiqaruvchi eng asosiy omillardan biri ko'pincha har xil ichki va tashqi ta'sirotlar ya'ni asosan kanserogen moddalarning organizmga salbiy ta'siri bo'lib xisoblanadi.

Hozirgi paytgacha odam va hayvonlarning o'smalarini o'rganish muhim ahamiyatga ega bo'lishiga qaramasdan ular bu soxada yetarli darajada muvaffaqiyatga erisha olmaganlar. Dastlabki paytlarda hayvonlar o'smalar bilan kasallanmaydi, ular faqat odamlarda uchraydigan kasallik degan xulosaga kelingan. Birinchi marta qishloq xo'jalik hayvonlari orasida o'smalarning tarqalishi to'g'risidagi ma'lumotni Zeblam 1803 yilda takdim etgan. Uning aytishi bo'yicha o'smalar nafaqat uy hayvonlari orasida tarqalgan, balki go'shtxo'r hayvonlarda o'smalar ko'proq uchraydi. Uning olib borgan izlanishlari shuni ko'rsatadiki, turli hayvonlarda turli xildagi o'sma turlari uchraydi. Masalan, otlarda melanoma, yirik shoxli hayvonlarda osteoma o'smalari keng tarqalgan. Eksperimental tekshirishlar va klinik kuzatishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, o'smalarni kelib chiqishiga va rivojlanishiga gormonal omillar ham ta'sir qiladi.

Yu.M. Lopuxin (1979) sichqonlarda o'tkazilgan tajribalarida estrogen gormonlarini qo'llash nafaqat urg'ochi balki erkak sichqonlarda ham sut bezi rakini chaqirganligini aniqlagan. Sichqonlarda ovarioektomiya o'tkazilgandan keyin esa sut bezi o'smasining kichrayishi aniqlangan.

Yomon sifatli o'smalarning kelib chiqish sabablarini aniqlash juda murakkab muammo bo'lib xisoblanadi. Shunga qaramay iliy mutaxassislar tomonidan juda ko'p blastomogenez nazariyalari ishlab chiqilgan. Lekin o'smalarning kelib chiqishi hozirgacha to'liq aniqlanmagan. Blastomoz jarayonining asosida organizmdagi hujayralarni proliferasiyaga uchrashi yotadi. O'smalar proliferasiyasi fiziologik proliferasiyalardan farqi shundaki, ular determinasiya qonunlariga bo'ysunmaydi va neyroqumoral ta'sirda bo'lmaydilar. Ularning proliferativ jarayonlari organizm tarafidan boshqarilmaydi.

Hayvonlarni ayrim o'smalarining kelib chiqishi sabablari yetarli darajada aniqlangan. Masalan, urg'ochi itlar orasida sut bezi o'smasi juda keng tarqalgan. Ularning namoyon bo'lishiga estrogen gormonlarning ta'siri aniqlangan. Itlarda ovarioektomiya o'tkazilganda ularda sut bezi o'smasi juda kam uchraydi. Ushbu o'sma bilan kasallangan urg'ochi itlarda ham ovarioektomiya operatsiyasi o'tkazilganda o'sma o'sishdan to'xtashi isbotlangan.

Yu.M. Lopuxin (1979) ta'kidlashicha organizmdagi ayrim bezlarning o'smalari gormonlar ta'siriga moyil bo'ladi. Prostata bezining o'smasida gormonal preparatlarini qo'llash yaxshi natija berishi, ya'ni o'smalar gormon ta'sirida kichrayishi ularning gormonlar ta'siriga moyilligini yana bir marta ko'rsatadi.

O'smalarning kelib chiqish nazariyalarini ko'pchiligida ularning organizmga salbiy ta'sirlarini mahalliy va umumiy bo'lishi va hamma vaqt ham to'g'ridan-to'g'ri ta'sir o'tkazadi degan fikri xato xisoblanadi. Endogen va ekzogen ta'sirotlar ularda almashinuvchi regenerasiyani rivojlantiradi va to'qimalardagi turli xil patologik o'zgarishlarga olib keladi. Ko'pgina onkologlarning fikriga ko'ra to'qimalarda blastomogen ko'payishning asosida modda almashinuvining bo'zilishi ayniqsa oqsil va uglevodlarning sifat va miqdor jihatdan o'zgarishlari yotadi.

Oxirgi paytlarda turli ilmiy tekshiruvlar natijasida olingan ma'lumotlarga ko'ra to'qimalarda kansirogen omillar ta'sirida hujayra apparatidagi genlarning bo'zilishidan ularning to'xtovsiz ko'payishi ko'z atilmaydi. Hozirgi paytda o'smalarni kelib chiqishi sabablari umumlashtirilib ikki yo'nalishiga bo'linadi:

Dastlabki yo'nalish turli xil tashqi va ichki ta'sirotlar natijasida hujayra ichida kechayotgan jarayonlarda turli xildagi salbiy biokimyoviy o'zgarishlar ko'z atilib, buning natijasida normal hujayralar o'sma hujayralariga aylanadi.

Ikkinchi yo'nalish bo'yicha o'smalarning kelib chiqish sabablari viruslar ekanligi aniqlangan. Bu yo'nalish vakillari viruslar ta'sirida to'qimalarda normal hujayralarning ichki modda almashinuvining bo'zilishi natijasida ularni blastomogenozga uchrab o'sma hujayralarga aylanishini ta'kidlaydilar.

Umuman olganda hozirgi kunga kelib ko'pgina olimlar o'smalarning kelib chiqish sabablarni ko'p ta'sirotli ya'ni polietiologik deb xisoblanmokdalar. Barcha yuqorida ta'kidlab o'tilgan sabablarni ham aniq deyish noto'g'ri xisoblanadi. Shu nuqtai nazardan o'smalar etiologiyasini aniqlash xaligacha soxa mutaxassislari oldida muammo bo'lib qolmoqda

O'smalarning kelib chiqishi polietiologik, lekin bu murakkab jarayonlarning rivojlanishini molekulyar darajada ko'radigan bo'lsak bunda hali ko'p noaniqliklar

mavjud. Normal to'qima o'zoq vaqt ta'sir etuvchi qitiqlanish ta'sirida o'sma to'qimasiga aylanadi. Bunda shuni aytish lozimki, barcha qitiklash ta'sirotlari o'smani o'sishga olib kelmaydi, balki asosan kimyoviy qitiqlovchi moddalar shunday xususiyatga ega.

O'smalarning kelib chiqishi virus tabiatli ekanligi to'g'risida birinchi marta Bose va Borrel 1903 yilda fikr bildirib o'tdilar. Ayrim virusli kasalliklarda (qo'ylar chechagi) kuchli hujayralar proliferasiyasi paydo bo'ladi. Shu soxada ilmiy izlanishlar olib borgan mualliflar fikriga ko'ra, bu xodisa teridagi ayrim o'smalarning o'sishi bilan o'xshash va ular bir xil antigenlar bilan chaqiriladi.

O'smalar muammosi biologik fanlar qatorida hamda tibbiyot va veterinariya xodimlari nuktai nazarida katta qiziqish uyg'otib kelgan dolzarb muammolardan biridir. Bu muammoni hal qilish maqsadida ko'pgina soxa mutaxasislari ilmiy izlanishlar olib borib fan uchun kerakli bo'ladigan samarali yutuqlarga erishib, soxa rivojiga o'z xissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Hozirgi kunda hayvonlar organizmida kechadigan barcha turdagi patologiyalar orasida yomon sifatli o'smalar patologiyasi tibbiyot va veterinariya nazariyasi va amaliyoti uchun muhim va dolzarb muammo bo'lib kelmoqda. Hayvonlar organizmida kechadigan o'smalar patologiyasini odamlarda kechadigan o'smalar patologiyasi bilan taqqoslab bo'lmasa ham yomon sifatli o'smalar muammosi veterinariyada ham yetarlicha dolzarb muammo xisoblanadi. Qishloq ho'jaligi hayvonlarining o'sma bilan kasallanishi natijasida xo'jaliklarga katta iqtisodiy yetkaziladi, chunki bu kasallik bilan so'yilgan hayvonlarning go'shtidan zararlangan joylar olib tashlanadi, bundan tashqari hayvon va parrandalarning bosh sonini ko'paytirishga to'skinlik qilib maxsuldorligini kamaytiradi va ba'zi xolatlarda hayvon o'limiga olib keladi.

Hayvonlar organizmida sodir bo'ladigan blastomotoz jarayonlarni o'rganish muhim vazifa bo'lib, ayniqsa taqqoslash patologiya aspektida katta ahamiyatga ega. O'smalar tabiatda ko'p tarqalgan bo'lib, odamlar hamda barcha turdagi hayvonlarda, shu jumladan, qishloq ho'jalik hayvonlari, laboratoriya va yirtqich hayvonlarda uchraydi. Ularning shakli va to'zilishi hamda joylashish joyi har xil

bo'lishiga qaramasdan o'sish qonuniyatlari, organizmga ko'rsatadigan ta'siri va klinik ifodasida ba'zi bir xilliklar ham bo'ladi. O'smalar xizmat itlari boqiladigan va ko'paytiriladigan kinologiya pitomniklarida katta iqtisodiy zarar yetkazadi.

Yuqorida ko'rsatilgan ma'lumotlarga asoslangan holda, itlar orasida uchraydigan jinsiy a'zo o'sma kasalliklarining kelib chiqishi, rivojlanishi, davolash va oldini olish chora - tadbirlarini yangi zamonaviy usullarini ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Ilmiy tadqiqot izlanishlarida viloyatimizdagi itlar orasida jinsiy a'zo o'smasi bilan kasallanish darajasi o'rganildi. Itlar orasida o'sma kasalliklarini keltirib chiqaruvchi mintaqaviy xususiyatlarga ega bo'lgan ekologik omillarni o'rganish va tashxis usullarini ishlab chiqish maqsadida itlarni saqlash va oziqlanish sharoitlari, rasion tahlili, klinik tekshirishlar yordamida itlarning o'sma bilan kasallanish darajasi, klinik kasal itlar miqdori aniqlandi. Klinik tekshirishlarda itlarning umumiy ahvoli, ishtahasi, jinsiy a'zo shilliq pardalarining holati, tana harorati, pulsi, nafas olishi, ularning jinsiy a'zoda hosil bo'lgan shishlarning xarakteri, og'riq sezish natijalari aniqlandi.

Tekshirishlar natijasida itlarda uchraydigan o'sma kasalligi turli xildagi mexanik shikastlar asorati sifatida rivojlanishi ma'lum bo'ldi.

Tekshirishlar natijasi shuni ko'rsatdiki, jinsiy a'zo o'smalari asosan ko'proq to'rt yoshdan katta itlarda uchrashi ma'lum bo'ldi. Jinsiy a'zo shilliq pardalarining yallig'lanishi va qayta-qayta mexanik jarohatlanishi ushbu kasallikning kelib chiqishiga asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari mintaqamizda ekologik muhitning buzilishi ham organizm rezistentligining pasayishiga va o'sma kasalliklarini rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, Hayvonlar anatomiyasi, fiziologiyasi, jarrohlik va farmokologiyasi kafedrasining klinikasida qabul qilingan 100 bosh itlarning 11 tasi (11%) jinsiy a'zo o'smalari bilan kasallanganligi aniqlandi. Shunga o'xshash 2013 -yilda qabul qilingan 97 bosh itlar tekshirilganda 12 tasi (12,4 %) jinsiy a'zo o'smalari bilan kasallanganligi ma'lum bo'ldi.

Kasallangan itlar klinik tekshirilganda ularning jinsiy a'zosida yiring aralash suyuqlik oqishi va shish, qizarish kuzatildi. Jinsiy a'zosidagi shilliq pardalarda og'riq borligi tufayli itlar siyishga qiynaladi. Shilliq pardalar qizarib usti yiringli g'ubor bilan qoplangan.

### **3.3. Itlarda jinsiy organlar o'smalarini konservativ va operativ usulda davolash**

Xirurgik amaliyotda jinsiy a'zo o'smalarini davolash asosan xirurgik operatsiya yo'li bilan olib boriladi.

Xirurgik kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, hayvonlarda uchraydigan o'smalarni xirurgik yo'l bilan davolash samarasi yuqori bo'lishi uchun quyidagi talablarni e'tiborga olish kerak:

1. O'sma sog'lom to'qimalar chegarasida olib tashlanishi lozim, shu bilan birgalikda sog'ayishi uchun o'sma elementlarining barchasi to'liqcha olinishi yoki zararlantirilishi kerak. Bu narsa shuni bildiradiki, o'sma bilan birgalikda regionar limfa tuguni olib tashlanishi kerak.

2. Hayvonlarni davolanishining natijasi: o'smani olib tashlashdan tashqari, organizmni himoya reaksiyasini oshirish bilan bog'liq.

3. O'smani xirurgik operatsiya yo'li bilan olib tashlash vaqtida ablastika va antiblastika qoidalariga rioya qilish, ya'ni implantatsiya residivini oldini olish, buning uchun operatsiya vaqtida o'sma to'qimasini shikastlanmasligi, asboblarni tez-tez almashtirib turish yoki qayta sterilizatsiya qilish, qon oqishini to'xtatish.

4. O'smalarni xirurgik operatsiya yo'li bilan olib tashlashda uyg'unlashgan narkoz, neyroleptanalgeziya o'tkaziladi. Bunda anestetik eritmani o'sma atrofidagi to'qimalarga yuborish maqsadga muvofiq, ekzofit o'sadigan o'smalarni olib tashlash vaqtida (masalan jinsiy a'zo, qin, teridagi) og'riqsizlantirish uchun ishlatiladigan eritmalar o'sma asosiga yuboriladi.

#### **Operatsiya texnikasi**

**Anesteziya.** Operatsiya umumiy narkozda olib boriladi. Buning uchun biz quyidagi preparatlardan foydalandik: premidikasiya uchun 0,1 % atropin itning katta-kichikligiga qarab 2 ml to 5 ml, bu preparat narkoz uchun keyinchalik



ishlatiladigan preparatlarni salbiy ta'sirini pasaytiradi, yurak urishi va nafas olishini bir me'yorda ushlab turadi. Shundan so'ng vena qon tomiriga 2,5 % aminazin miqdori 1 ml/kg tirik vazniga va ketamin 5 mg 1 kg tirik vazniga. Bundan tashqari kesim chizig'i bo'ylab 0,5 % novokain eritmasi bilan infiltrasion og'riqsizlantirish olib boriladi.

Itlar chalqanchasiga kurakda yotgan holatda fiksasiya qilinadi. Oldingi va orqa oyoqlar yonbosh tarafga tortilib yaxshilab bog'lanib fiksasiya qilinadi.

**Asboblari.** Bu operatsiyani o'tkazish uchun quyidagi asboblari yig'indisi ishlatiladi: kesuvchi - skalpel, qaychi; qon to'xtatuvchi – Koxer, Pian, Belrot qisqichlari; xirurgik ignalar va igna tutgichlar. Asboblari distillangan suvda 30-40 minut davomida qaynatish usuli bilan sterelizasiya qilinadi. Sterelizasiya qilingan asboblari steril salfetkaga qo'llanilish tartibiga qarab terib qo'yiladi.

Operasiya maydonchasi tayyorlangandan keyin jinsiy a'zo 1:5000 nisbatda furasilin eritmasi bilan yaxshilab yuviladi va jinsiy a'zo asosiga 0,5 % novokain eritmasi inyeksiya qilinadi, keyin jinsiy a'zo prepusiya xaltasidan tashqariga chiqariladi. Qaychi yordamida jinsiy a'zodagi o'sma asta-sekin olib tashlanadi. Qon tomirlardan oqayotgan qon tomirlarga chok qo'yiladi. Shundan so'ng jarohat qirralariga chok qo'yib yaqinlashtiriladi. Barcha jarohatlarga chok qo'yilgandan keyin furasilinda namlangan doka bilan qon qoldiqlari olib tashlanadi. 5 % li shprisga solingan 2-3 ml sintomisin emulsiyasi prepusiya xaltasiga yuboriladi.

#### **4. Veterinariya ishini tashkil etish va uning iqtisodi**

Hozirgi kunning bozor iqtisodiyoti davrida aholining go'sht, sut va boshqa chorvachilik mahsulotlari bilan ta'minlash juda katta ahamiyatga ega. Buning uchun chorva mollarini kasalliklardan saqlash uchun veterinariya ishini tashkil etish kerak.

Tuman veterinariya bo'limlari hozirgi kunda quyidagi tartibda ish olib boradi: 1 tuman bosh veterinariya vrachi, epizootologik vrach, vrach terapevt, feldsher, aptekachi, 1-sanitar va 2-yordamchi, hisobchi, qorovul.

Tuman veterinariya bo'limining vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Tuman jo'jaliklarida veterinariya sanitariya tadbirlarini o'tkazish.
2. Hayvonlarga kerakli davolash yordam ko'rsatish va uni takomillashtirish.
3. Aholining zooantroponoz kasalliklardan ximoya qilish, bularga qo'y, qoramollarning ayrim yuqumli kasalliklari kiradi.

Hozirgi kunda mamlakatimizning sifatli chorva mahsulotlari bilan ta'minlash maqsadida hozirgi kunda veterinariya xizmati juda yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Hozirgi kunda mamlakatimizdagi har bir viloyatda veterinariya boshqarmalari bo'lib, ularga esa tuman veterinariya bo'limlari bo'ysunadi.

Tuman veterinariya punktida tuman veterinariya bosh vrachi boshqaradi. Veterinariya punktlari bo'linma mudiri, veterinariya feldsherlari, VSE laboratoriya mudiri va laborantlardan iborat.

Veterinariya bo'limida vet.laboratoriyasi bo'lib, tuman veterinariya bo'limiga bo'ysunadi.

Veterinariya bo'limida quyidagi bo'limlar mavjud:

1. Serologik bo'lim
2. Bakteriologik bo'lim
3. Radiologik bo'lim
4. VSE bo'limi

Veterinariya laboratoriyasi juda yaxshi jihozlangan bo'lib, unga kasallangan hayvonlardan olingan numanalar, siydik, qon, axlat yoki pat.materiallar tekshirish uchun yuboriladi.

Tuman veterinariya bo'limi quyidagi shtat va birliklardan iborat:

1. Bosh veterinariya vrachi
2. Epizootolog
3. Vrach terapevt
4. Apteka mudiri
5. Hisobchi
6. Sanitar
7. Qorovul
8. Farrosh
9. Shofyor

Tuman veterinariya bo'limining vazifalari quyidagilar:

1. Tuman xo'jaliklarida veterinariya sanitariya tadbirlarini o'tkazish.
  - a) Hayvonlarga kerakli davo va muolajalar qilish;
  - b) Xo'jaliklarda vaksinasiya ishlarini tashkil qilish, nazorat qilish;
  - v) Bozorlarda sotiladigan chorva mahsulotlarini davlat standartlari darajasida bo'lishini ta'minlash.
2. Aholining zooantroponoz kasalliklardan himoya qilish.

Veterinariya xizmatiga zarur bo'lgan mablag'lar quyidagi manbalardan keladi:

1. Davlat byudjetidan
2. Davlat sug'urtasidan
3. Chorvachilik bilan shug'ullanuvchilar ajratgan mablag'lar hisobiga
4. Aholiga ko'rsatilgan pullik xizmat hisobidan
5. Byudjet hisobidagi veterinariya muassasalari va tashkilotlarning maxsus mablag'laridan.

Mablag'dan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

1. Veterinariya tashkilotlari va muassasalarini ushlab turish uchun.

2. Epizootiyaga qarshi tadbirlar uchun.
3. Veterinariya obyektlarini ta'minlash.
4. Chorva mollarni diagnostik tekshirish uchun.
5. Chorva mollarini davolash va muolajalar uchun ishlatiladi.

## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA TO'G'RISIDAGI QONUNI**

### **1. Umumiy qoidalar.**

#### ***1-modda. Veterinariya.***

Veterinariya - hayvonlarni kasalliklardan muhofaza qilish hamda ularni davolash, ishlab chiqarish va aholining yuqori sifatli chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, odamlarning hayvonga ham, insonga ham xos kasalliklarga chalinishining oldini olish, shuningdek atrof muhitni muhofaza qilishning veterinariya sanitariya muammolarini hal etishga doir davlat, jamoat, xo'jalik va maxsus veterinariya tadbirlari majmuidan iboratdir.

#### ***2-modda. Veterinariyaning vazifalari.***

Quyidagilar veterinariyaning asosiy vazifalari hisoblanadi: Hayvonlarni (chorva mollar, parrandalar, mo'ynali va boshqa hayvonlarni, baliqlar, asalarilar, hayvonot bog'laridagi va boshqa shu kabilardagi jonivorlarni kasalliklardan himoya qilish;

Aholini odam va hayvonlar uchun umumiy bo'lgan kasalliklardan muhofaza qilish;

O'zbekiston Respublikasi hududini boshqa davlatlar hududidan hayvonlarning yuqumli kasalliklari olib kirilishidan muhofaza qilish;

Yagona davlat veterinariya nazoratini amalga oshirish;

Atrof muhitni himoya qilishning veterinariya-sanitariya muammolarini hal etish;

Veterinariya xodimlari tayyorlash va ularni malakasini oshirish;

Fan va texnika yutuqlarini veterinariya amaliyotiga tadbiq etish.

#### ***3-modda. Veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlari.***

Veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonunda hamda unga muvofiq chiqariladigan boshqa qonun hujjatlaridan iborat bo'ladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida veterinariya ishi Qoraqalpog'iston Respublikasi qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

#### ***4-modda. Veterinariya tuzilishi.***

O'zbekiston Respublikasida Davlat veterinariyasi, idoraviy va xususiy veterinariyalar amal qiladi.

Davlat veterinariya xizmatini O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi Vazirligi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasi, viloyat va Toshkent shahrining davlat veterinariya boshqarmalari, tumanlar, viloyat va tuman bo'ysunuvidagi shaharlarning davlat veterinariya bo'limlari, ularning qoramog'idagi hayvonlar kasalliklariga qarshi kurash stansiyalari (tuman veterinariya stansiyalari), diagnostika markazlari, veterinariya shifoxonalari, laboratoriyalari, ekspeditsiyalari, hayvonlar kasalliklariga qarshi kurash otryadlari, bozorlardagi veterinariya-sanitariya ekspertizasi laboratoriyalari va davlat veterinariya tarmog'ining boshqa tashkilot va muassasalari amalga oshiradilar.

Joylardagi davlat va idoraviy veterinariya bo'linmalarining tuzilishi va mikdori chorvachilikning rivojlanish xususiyatlarini, qushxona va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarining joylashtirilishi hisobga olgan holda shakllantiriladi hamda bosh davlat veterinariya nozirlari bilan kelishilgan holda mahalliy hokimiyat organlari tomonidan belgilanadi.

Davlat va idoraviy veterinariya xizmati muassasalari qoshida qonunlarga muvofiq shartnoma asosida veterinariya xizmati ko'rsatadigan qo'shma korxonalar, kooperativlar va boshqa xo'jalik hisobidagi birlashmalar tuzilishi mumkin.

#### ***5-modda. Veterinariya xizmatini boshqarish.***

O'zbekiston Respublikasi veterinariya xizmatiga rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jalik vazirligi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasi amalga oshiradi. Davlat veterinariya bosh boshqarmasiga O'zbekiston

Respublikasi Qishloq va suv xo'jalik vazirligi tayinlaydigan boshliq boshchilik qiladi.

Davlat veterinariya bosh boshqarmasi xalqaro veterinariya tashkilotlarida O'zbekiston Respublikasi nomidan vakillik qabul qiladi.

Viloyatlarda va Toshkent shahrida veterinariya xizmatiga rahbarlikni tegishincha viloyatlar va Toshkent shahrining davlat veterinariya boshqarmalari amalga oshiradilar. Viloyatlar va Toshkent shahrining davlat veterinariya boshqarmalariga tegishli viloyat va Toshkent shahri hokimlari bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasi tayinlaydigan boshliq boshchilik qiladi.

Tuman va shaharlarda veterinariya xizmatiga rahbarlikni tuman va shahar davlat veterinariya bo'limlari amalga oshiradilar. Tuman va shaharlardagi veterinariya bo'limlariga tegishli tuman va shahar hokimlari bilan kelishilgan holda viloyat davlat veterinariya boshqarmalari tayinlaydigan boshliq boshchilik qiladi.

Davlat chegarasida va transportda veterinariya xizmatiga rahbarlikni davlat chegarasi va transportdagi davlat veterinariya nazorati boshqarmasi amalga oshiradi. Davlat chegarasi va transportdagi davlat veterinariya nazorati boshqarmasiga O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jalik vazirligi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasi tayinlaydigan boshliq boshchilik qiladi.

Viloyatlar, shaharlar va tumanlardagi veterinariya xizmatini boshqarish davlat idoralari vakolatlari doirasida tegishli hokimlarga va yuqori idoralarga bo'ysunadilar.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jalik vazirligi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasi to'g'risida nizom O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jalik vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

## **II. VETERINARIYA XIZMATI**

### ***6-modda. Davlat veterinariya xizmatining vazifalari.***

Davlat veterinariya xizmati idoralari o'z vakolatlari doirasida idoraviy mansubligi hamda mulk shaklidan qat'iy nazar, barcha korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning ishi ustidan, shuningdek ayrim shaxslarning faoliyati ustidan veterinariya-sanitariya nazoratini amalga oshiradilar.

Davlat veterinariya xizmati:

Epizootik vaziyatni baholaydi va o'ziga berilgan vakolatlar doirasida hayvonlarning yuqumli kasalliklarning oldini olish va ularni yo'qotish tadbirlarini amalga oshirish yuzasidan bajarilishi majburiy ko'rsatmalar beradi;

O'zbekiston Respublikasi hududini chetdan hayvonlarning yuqumli kasalliklari kirib kelishidan qo'riqlash, mollar, hayvonotga mansub mahsulotlar va xom ashyo, yem-xashak, ozuqabop qo'shimchalar va chorvachilikda qo'llaniladigan boshqa vositalarni tayyorlash, tashish, xorijdan keltirish ustidan nazoratni amalga oshiradi;

Kasalliklarning kelib chiqishi va hayvonlarning nobut bo'lishining sabablarini tahlil qiladi, bunday hollarning oldini olish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi, hayvonlarni davolash ishini tashkil etadi;

Hayvonlarning kasalliklarini aniqlash, shuningdek yem-xashak va ichimlik maqsadida laboratoriya-klinik hamda boshqa tadqiqotlar o'tkazadi;

Hayvonlarning yuqumli, invazion kasalliklarining oldini olish va bartaraf etish tadbirlarini amalga oshiradi;

Sog'likni saqlash organlari va boshqa xizmatlari bilan birgalikda odamlar va hayvonlar uchun xavfli bo'lgan yuqumli kasalliklar manbaiga barham beradi, shuningdek o'zaro axborotlar ayirboshlaydi;

Veterinariya-sanitariya jihatdan yuqori sifatli chorva mahsulotlari va xom ashyosi ishlab chiqarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

Barcha chorvachilik obyektlari, qushxonalar, go'sht-sut va boshqa mahsulotlarini qayta ishlaydigan korxonalar, bozorlar va xom ashyo omborlarining veterinariya-sanitariya holatini nazorat qiladi, bu obyektlarning qurilishi va qayta qurilishini, shuningdek yer qazish ishlarini veterinariya ekspertizasidan o'tkazadi;

O'zbekiston Respublikasining, boshqa davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslaridan yuqumli kasalliklar yoyilib ketishining oldi olinishi va bartaraf etilishini ta'minlash tadbirlari o'tkazilishini, shuningdek hayvonlarning epizootik holatini aniqlash uchun zarur bo'lgan axborotni taqdim etishni talab qiladi;

Yuqumli kasalliklar aniqlanganda yoki hayvonlarning o'ta xavfli kasalligi mavjudligi haqida shubha paydo bo'lganida yuridik va jismoniy shaxslarga mollarni so'yish yoki yo'q qilib tashlash, chorvachilik mahsulotlarini va hayvonotga mansub xom ashyoni zararsizlantirish, ularni ishlovdan o'tkazish yoki ulardan foydalanishga doir bajarilishi majburiy talablarni belgilab qo'yadi;

Davlat idoraviy va xususiy veterinariya mutaxassislarining faoliyatini nazorat etadi va muvofiqlashtiradi;

Veterinariya sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqlashtiradi.

#### ***7-modda. Davlat veterinariya inspektorlari.***

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jalik vazirligi huzuridagi Davlat veterinariya Bosh boshqarmasining boshlig'i O'zbekiston Respublikasining Bosh davlat veterinariya inspektori hisoblanadi, uning o'rinbosarlari – O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat veterinariya inspektorining o'rinbosarlari, viloyatlar va Toshkent shahrining davlat veterinariya boshqarmalari – viloyatlar va Toshkent shahrining Bosh davlat veterinariya inspektorlari, ularning o'rinbosarlari esa tegishincha viloyatlar va Toshkent shahri Bosh davlat veterinariya inspektorlarining o'rinbosarlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat veterinariya bosh boshqarmasining davlat chegarasi va transportdagi davlat veterinariya nazorati boshqarmasi boshlig'i, davlat chegarasi va transportdagi Bosh davlat veterinariya inspektori hisoblanadi, uning o'rinbosarlari esa davlat chegarasi va transportdagi Bosh davlat veterinariya inspektorining o'rinbosarlari hisoblanadilar.

Shaharlar va tumanlar davlat veterinariya xizmatlarining boshliqlari tegishli shahar va tumanning davlat veterinariya inspektori hisoblanadi.



Chegara va transportdagi veterinariya punktlarining (uchastkalarining) boshliqlari tegishli chegara uchastka va transportdagi davlat veterinariya inspektorlari hisoblanadilar.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jalik Vazirligi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasining veterinariya mutaxassisleri o'z vakolatlari doirasida davlat veterinariya inspektorlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Bosh davlat veterinariya inspektori, viloyatlar, Toshkent shahri, davlat chegarasi va transportdagi bosh davlat veterinariya inspektorlari, ularning o'rinbosarlari va davlat veterinariya inspektorlari va vakolatlari doirasida ushbu Qonunga muvofiq yagona davlat veterinariya nazoratini amalga oshiradilar.

***8-modda. Davlat veterinariya inspektorlarining vakolatlari.***

Bosh davlat veterinariya inspektorlari, ularning o'rinbosarlari hamda davlat veterinariya inspektorlari o'z vakolatlari doirasida.

Vazirliklar, idoralar, jamoa xo'jaliklar, davlat xo'jaliklari boshqa korxonalar, tashkilotlar va muassasalarga, shuningdek alohida shaxslarga zarur veterinariya sanitariya tadbirlari va epizootik kasalliklarga qarshi tadbirlar o'tkazish to'g'risida bajarilishi majburiy ko'rsatmalar beradilar;

O'zbekiston Respublikasi veterinariya bosh boshqarmasi belgilaydigan ro'yxatdagi o'ta xavfli yuqumli kasalliklarga chalingan hayvonlar aniqlangan takdirida bu hayvonlarni so'yish yoki yo'q qilib tashlash to'g'risida, shuningdek iste'molga yaroqsiz deb topilgan hayvonotga mansub mahsulotlar va xom ashyoni yo'q qilib tashlash, ishlovdan o'tkazish yoki o'zga tarzda foydalanish to'g'risida barcha korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va alohida shaxslar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar beradilar;

Veterinariya nazorati ostidagi obyektlarga kecha-kunduzning istalgan paytida bemalol, mone'liksiz kiradilar va veterinariya qonunlarining buzilganligi hollarini bartaraf etish xususida hamma uchun majburiy ko'rsatmalar beradilar;

Chorvachilik fermalari, mol va parranda kushxonalari, hayvonotga mansub mahsulotlar va xom ashyoni ishlovdan o'tkazish hamda saqlash korxonalarini,

utilizatsiya zavodlari, baliqchilik xo'jaliklari, hayvonlarni sun'iy qochirish stansiyalari va boshqa chorvachilik obyektlarining rejasini tuzish, ko'rish va ishga tushirish loyihalari, shu jumladan ana shu obyektlardagi oqindi suvlarni zararsizlantirish inshootlari loyihalari xususida xulosalar beradilar;

Yuqorida qayd etilgan barcha turdagi qurilishlar uchun yer uchastkalari ajratib berish, mollar uchun suv olish joylarini tanlash, go'sht kombinatlari va boshqa hayvonotga mansub mahsulotlar hamda xom ashyoni ishlovdan o'tkazish va saqlash korxonalarining suv ta'minoti loyihalari xususida xulosalar beradi;

Holati veterinariya-sanitariya jihatdan konikarsiz yoki mollar sog'ligiga, shuningdek mahsulotlar sifatiga zararli ta'sir ko'rsatish xavfi bo'lgan temir yul vagonlari, kemalar, samolyotlar va boshqa transport vositalaridan foydalanishni taqiqlaydilar;

Chorvachilik obyektlari, go'sht va sut sanoati korxonalaridan, hayvonotga mansub mahsulotlar va xom ashyoni qayta ishlaydigan hamda saqlaydigan korxonalarining hayvonlarning yuqumli kasalliklari jihatidan nobopligi yoki veterinariya-sanitariya holati qoniqarsizligi aniqlanganda ulardan foydalanishni ta'qiqlaydilar;

Hayvonlar gigiyenasi normalari va veterinariya-sanitariya qoidalarining aniqlangan buzilishlari bartaraf etulgunga qadar chorvachilik yormalarida, hayvonlarga mansub mahsulotlar va xom ashyoni ishlodan o'tkazish hamda saqlash korxonalarida ishlab chiqarish binolari va inshootlari qurilishini, qayta qurilishni, yangi qurilgan, taqiqlangan va qayta qurilgan obyektlarning foydalanishga topshirilishini to'xtatib qo'yadilar;

Ushbu Qonunni, hayvonlar karantini qoidalarini, boshqa veterinariya-sanitariya talablarini buzganlik uchun mansabdor va o'zga shaxslarga belgilangan tartibda muvofiq ma'muriy jazo beradilar;

Hayvonlarning egalari hayvonotga mansub mahsulotlarni qayta ishlash, saqlash va sotish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar, shuningdek fuqarolar va veterinariya mutaxassislari ushbu Qonun, qonun asosida chiqarilgan hujjatlar va

veterinariyaning boshqa talablarini bajarishlari ustidan nazoratni amalga oshiradilar;

Chegara joylarda, ko'shni davlatlarda yuzaga kelgan epizootik vaziyat to'g'risida tegishli tashkilotlar va idoralarni xabardor qiladilar, zarur tavsiyalar beradilar;

Veterinariya dori-darmonlar, biologik, kimeviy va boshqa dorilar ishlab chiqarilishini hamda ulardan chorvachilik va veterinariyada foydalanishini nazorat qiladilar, ularning hayvonlar sog'ligi va hayvonatga mansub mahsulotlarning sifatiga ta'sirini baholaydilar.

***9-modda. Davlat veterinariya xizmatini moddiy va moliyaviy ta'minlash.***

Davlat veterinariya xizmati:

Respublika va mahalliy byudjet mablag'lari, davlatning mollarini sug'urta qilish mablag'laridan ajratmalar, pullik xizmatlar ko'rsatganligi uchun veterinariya korxonalari, muassasalari va tashilotlari oladigan mablag'lar hisobiga ta'minlanadi.

Ushbu Qonun talablarini buzganlik uchun undiriladigan ma'muriy jarima pullari viloyat va Toshkent shahrining epizootik fondlariga tushadi.

Ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo'yiladigan hayvonlar yuqumli kasalliklarining oldini olish va bartaraf etish tadbirlari hisobidan amalga oshiriladi.

***10-modda. Idoraviy veterinariya xizmati.***

Idoraviy veterinariya xizmati vazirliklar, idoralar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning tasarrufida bo'ladi.

Idoraviy veterinariya xizmatlarining veterinariya mutaxassislari o'z vakolatlari doirasida davlat veterinariya idoralarining uslubiy rahbarligi va nazorati ostida hayvonlarga idoraviy veterinariya nazoratini va veterinariya xizmati ko'rsatishni amalga oshiradilar.

***11-modda. Idoraviy veterinariya xizmati veterinariya mutaxassislarining huquqlari.***

Idoraviy veterinariya xizmatining veterinariya mutaxassislari:

Idoraga qarashli veterinariya nazorati ostidagi obyektlarga kechakunduzning istalgan paytida bemalol, mone'leksiz kirish va veterinariya to'g'risidagi qonunlarning aniqlangan buzilishlarini bartaraf etish haqida bajarilishi majburiy ko'rsatmalar berish;

Yuridik va jismoniy shaxslardan epizootik kasalliklarning oldini olishni va ular bartaraf etilishini ta'minlaydigan tadbirlar o'tkazishni, shuningdek idoraga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda hayvonlarning epizootik holatini aniqlash uchun zarur ma'lumotlarni taqdim etishni talab qilish huquqiga egadirlar.

***12-modda. Idoraviy veterinariya xizmati veterinariya mutaxassislarining vazifalari.***

Idoraviy veterinariya xizmatining veterinariya mutaxassislari, veterinariya to'g'risidagi qonunlarning bajarilishi ustidan o'z vakolatlari doirasida idoraviy veterinariya nazoratini amalga oshirishlari;

Xizmat ko'rsatilayotgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda epizootik kasalliklarga qarshi tadbirlar, davolash va veterinariya-sanitariya tadbirlari o'tkazishlari;

Hayvonlarda yuqumli kasalliklar borligi xususida shubha paydo bo'lganda bu haqda davlat veterinariya xizmati idoralariga zudlik bilan xabar qilish va kasalliklarning tarqalib ketishiga yo'l quyimaslik uchun barcha zarur choralarni ko'rishlari;

Epizootik kasalliklarga qarshi tadbirlar, veterinariya-sanitariya va davolash-profilaktika tadbirlari o'tkazish hamda veterinariya to'g'risidagi qonunlar buzilishida aybdor bo'lgan mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish yuzasidan mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga takliflar kiritishlari;

Amalga oshirilgan ishlar haqida davlat veterinariya xizmati oldida belgilangan tartibda hisobot berib borishlari shart.

***13-modda. Idoraviy veterinariya xizmatini ta'minlash.***

Idoraviy veterinariya xizmati tegishli vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, xo'jalik hisobidan ta'minlanadi.

***14-modda. Xususiy veterinariya faoliyati.***

Xususiy veterinariya faoliyati bilan veterinariya vrachi bo'lgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar shug'ullanishiga haqlidirlar.

Veterinariya feldsherlari va texniklari veterinariya vrachi nazorati ostida xususiy ish bilan shug'ullanadilar.

Xususiy veterinariya faoliyati bilan shug'ullanayotgan veterinariya mutaxassislari belgilangan tartibda berilgan tegishli ruxsatnomalar (lisenziyalar) ga ega bo'lishlari shart.

***15-modda. Xususiy veterinariya faoliyati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarining huquqlari.***

Xususiy veterinariya faoliyati bilan shug'ullanuvchi veterinariya mutaxassislari:

Hayvonlarning karantin yoki qonunlarda belgilangan cheklashlar qo'llanadigan kasalliklarga chalinishi hollarini istisno etganda kasallikni aniqlab tashxis quyish va davolash bilan shug'ullanishga;

Hayvonlarni kasallanishdan saqlash maqsadida emlash tadbirlari o'tkazishga, shuningdek hayvonlarning egallariga maslahat berishga;

Hayvonlar sog'ligiga doir veterinariya hujjatlar berishga;

Mollar va boshqa hayvonlarning yuqumli kasalliklarga chalinishi xavfi paydo bo'lganida hayvonlarni, hayvonatga mansub mahsulotlar va xom ashyoni, shuningdek yem-xashakni obyektga chetdan olib kirish va obyektidan chetga olib chiqishni taqiqlab kuyishga haqlidirlar.

***16-modda. Xususiy veterinariya faoliyati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar vazifalari.***

Xususiy veterinariya faoliyati bilan shug'ullanuvchi veterinariya mutaxassislari:

Hayvonlarda yuqumli kasalliklar borligi xususida shubha paydo bo'lganida bu haqda mahalliy davlat veterinariya xizmatiga zudlik bilan xabar qilishlari va kasalliklarning tarqalib ketishiga yul qo'ymaslik choralari ko'rishlari;

Kasalliklar keng tarqalib ketganida davlat veterinariya ko'rsatmalariga muvofiq ravishda veterinariya tadbirlari amalga oshirishlari;

Amalga oshirayotgan ishlari haqida davlat veterinariya xizmati oldida belgilangan tartibda hisob berib borishlari shart.

### **III. HAYVON VA CHORVACHILIK MAHSULOTLARI EGALARINING HUQUQ HAMDA VAZIFALARI**

#### ***17-modda. Hayvon va chorvachilik mahsulotlari egalarining huquqlari.***

Hayvon va chorvachilik mahsulotlari egalari:

Veterinariya xizmati ko'rsatilishi uchun davlat, idoraviy va xususiy veterinariya xizmatlari bilan shartnomalar tuzish;

Veterinariya xizmatidan hayvonlarning kasallikga chalinish darajasi, epizootik vaziyat va hayvonlar hamda chorvachilik mahsulotlarini maxsus tadqiq etish natijalari haqida axborot olish;

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jalik vazirligi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasi belgilangan tartibda hayvon va chorvachilik mahsulotlari, yem-xashak, veterinariya dori-darmonlar sotib olish va sotish, shu jumladan xorijdan sotib olish va xorijga sotish;

Mahalliy hokimiyat organlari, davlat, idoraviy veterinariya xizmatlari hamda xususiy veterinariya faoliyati bilan shug'ullanayotgan mutaxassislarning g'ayriqonuniy hatti-harakatlari va ko'rsatmalari ustidan shikoyat qilish huquqiga egadirlar.

#### ***18-modda. Hayvon va chorvachilik mahsulotlari egalarining vazifalari***

Hayvon va chorvachilik mahsulotlarining egalari:

Ushbu qonun va veterinariya to'g'risidagi boshqa qonun hujjatlarining talablariga rioya etishlari;

O'z mablag'lari hisobiga hayvonlar yuqumli kasalliklarga chalinishining oldini olishga karatilgan tashkiliy-xo'jalik va veterinariya tadbirlarini amalga oshirishlari, byudjetdan moliyaviy ta'minlanadigan tadbirlar bundan mustasno;

Kasal hayvonni davolatishlari, zarur bo'lganda veterinariya mutaxassisining ko'rsatmasiga binoan so'yish yoki yo'q qilib tashlanishini ta'minlashlari;

Kasallik qo'zg'atuvchi mikroblar bilan ifloslangan yoxud zararlangan chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarilishi va sotilishi istisno etuvchi hayvonlar gigiyenasi normalarini bajarishlari va veterinariya-sanitariya qoidalariga rioya etishlari;

Hayvon sotib olinganligi va ularning to'satdan harom o'lishi yoki g'ayriodatiy hatti-harakati hollari to'g'risida muayyan hududga xizmat ko'rsatuvchi tegishli veterinariya xizmatiga zudlik bilan xabar qilishlari;

Veterinariya xizmatining hayvonlarni yuqumli kasalliklardan muhofaza etish yuzasidan bergan taqdimnomalarni bajarishlari hamda karantinga doir tegishli tadbirlar va boshqa veterinariya tadbirlari o'tkazilishini ta'minlashlari, shuningdek davolash-prafilaktika ishlovlarini to'liq hajmda o'tkazishlari;

Chorvachilik fermalarini, hayvonlar hamda chorvachilik mahsulotlarini saqlanadigan binolar va boshqa inshootlarni, shuningdek yaylovlar, suv xavzalari, mol haydab o'tiladigan yullar, temir yul bekatlari, ko'rgazmalar, yarmarkalar, bozorlar, so'yish punktlari, maydonchalar, go'sht kombinatlari, separator bo'limlari, sut punktlari va zavodlarini lozim bo'lgan veterinariya-sanitariya holatida saqlashlari, ularda dezinfeksiyalash, dezinseksiyalash va deratizasiyalash ishlarini o'z vaqtida o'tkazishlari, shuningdek o'lgan hayvonlar jasadini yig'ishtirib olishlari va yo'q qilib tashlashlari;

Hayvonlar hamda chorvachilik mahsulotlari va xom ashyosi savdo-sotig'ini faqat davlat veterinariya xizmatining ruxsati bilan maxsus ajratilgan joylarda veterinariya-sanitariya qoidalariga rioya etgan holda amalga oshirishlari;

Veterinariya mutaxassislarining talabiga binoan hayvonlarni ko'rikdan, diagnostik tekshiruvdan, ehtiyot shart yo'sinida emlashdan va davolash-profilaktika ishlovlaridan o'tkazish uchun topshirilishini ta'minlashlari, veterinariya xodimlariga ko'rsatilgan veterinariya xizmatlari evaziga hak to'lagan holda veterinariya tadbirlarini o'tkazish uchun zarur shart-sharoit yaratib berishlari;

Yuqumli kasalliklarning paydo bo'lishi yoki chorva mahsulotlarining yaroqsizligi hayvon egalarining aybi bilan paydo bo'lganligi sud tomonidan

isbotlangan hollarda sog'lomlashtirish tadbirlariga ketgan xarajatlarni davlat veterinariya xizmatiga to'lashlari;

O'zbekiston Respublikasi Davlat veterinariya bosh boshqarmasi tomonidan tasdiqlanmagan biopreparatlar, dori-darmonlar, ozuqabop qo'shimchalar, mikroelementlar, biologik kuchaytirgichlar va garmonlarni chorvachilikda qo'llamasliklari;

O'zbekiston Respublikasi Davlat veterinariya bosh boshqarmasi tomonidan belgilangan veterinariya-sanitariya talablariga hamda hayvonlar, hayvonga mansub mahsulotlar va xom ashyo hamda yem-xashakni chet eldan sotib olish va chet elga chiqarish talablariga rioya etishlari shart.

#### **IV. HAYVONLARNING YUQUMLI KASALLIKLARI TARQALGANIDA KARANTIN BELGILASH VA UNI BEKOR QILISH TARTIBI**

***19-modda. Hayvonlarning yuqumli kasalliklari tarqalganida karantin yoki cheklashlar.***

Hayvonlarning yuqumli kasalliklari tarqalgani aniqlangan hollarda tuman (shahar) davlat, veterinariya inspektorining taqdimnomasiga binoan mahalliy hokimiyat organlarining qarorlari bilan ayrim podalar, otarlar, uyurlar, qo'ralar, fermalar, xo'jaliklar, korxonalar, temir yul bekatlari, aeroportlar, daryo portlari, qishloq va qo'rg'onlarning hududlari hayvonlarning yuqumli kasalliklari tarqalganligi jihatidan yomon ahvolda deb e'lon kilinadi hamda ularda karantin yoki zarur cheklashlar o'rnatiladi.

Tumanlarni, shaharlarni, viloyatlarni, hayvonlarning yuqumli kasalliklari tarqalganligi jihatidan yomon ahvolda deb e'lon qilish hamda ularda karantin yoki boshqa cheklashlar o'rnatish tegishli bosh davlat inspektorlarining taqdimnomasiga binoan viloyatlar va Toshkent shahri hokimiyatining vakillik organlari yoki viloyatlar va Toshkent shahri hokimlarining qarorlari bilan yoki O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat veterinariya inspektorining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan amalga oshiriladi.

Hayvonlarning yuqumli kasalliklari bilan og'rishi batomom to'xtaganidan keyin karantin yoki cheklashlar o'rnatilgan hududda zarur veterinariya-sanitariya



tadbirlari amalga oshirilganda kasalliklarga qarshi kurash qo'llanmalarida ko'rsatilgan muddat o'tganidan so'ng tegishli bosh davlat veterinariya inspektorlarining taqdimnomasiga binoan karantin yoki cheklashlar o'rnatgan tuman, shahar, viloyat va Toshkent shahri hokimiyatining vakillik organlari yoki hokimlarining qarorlari bilan yoxud O'zbekiston Respublikasi Bosh Davlat veterinariya inspektorining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi Vazirligining qarori bilan karantin yoki cheklashlar bekor kilindi.

Tarqalishi oqibatida karantin yoki cheklashlar belgilanadigan hayvonlarning yuqumli kasalliklari ro'xati O'zbekiston Respublikasi. Qishloq va suv xo'jaligi Vazirligi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasi tomonidan tasdiqlanadi.

#### ***20-modda. Epizootik kasalliklarga qarshi favqulodda komissiyalar***

Hayvonlar yalpi kasallanishi hamda nobud bo'lishining oldini olish va bartaraf etish yuzasidan korxonalar, muassalar, tashkilotlar va ayrim shaxslar faoliyatiga kundalik rahbarlik qilish hamda bu boradagi ishni muvofiqlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, shahar va tuman hokimiyatining vakillik organlari yoki hokimlar tomonidan o'zining tasdiqlangan Nizomiga muvofiq ish olib boruvchi epizootik kasalliklarga qarshi komissiyalar tuziladi.

### **V. YAKUNIY QOIDALAR.**

***21-modda. Veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik.***

Veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlari bo'zishida aybdor bo'lgan shaxslar muvofiq intizomiy, moddiy, ma'muriy va jinoiy javobgar bo'ladilar.

#### ***22-modda. Veterinariya xodimlarining davlat sug'urtasi.***

Davlat veterinariya idoralarining xodimlari byudjet hisobiga davlat tomonidan majburiy sug'urta qilishlari lozim.

#### ***23-modda. Xalqaro shartnomalar.***

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida ushbu Qonundagidan o'zgacha qoidalar belgilab qo'yilgan bo'lsa, u holda xalqaro qoidalari qo'llanadi.

## **5. Hayot faoliyati xavfsizlili**

### **5.1. Mehnatni muhofaza qilish**

Mehnatni muhofaza qilishni tashkil etish tegishli qoida asosida olib boriladi.

Ishga qabul qilishda muhandis xavfsizlik qoidalari bo'yicha instruktaj o'tkazadi. Bunda ichki qonun-qoidalar, ishlab chiqarish sanitariyasi, tozaligi, elektr energiyasi va yong'inga qarshi tadbirlar, maxsus kiyimlarni saqlash, mollarni fiksasiya qilishda xavfsizlik qoidalariga e'tibor berish to'g'risida tushuntirish olib boriladi.

Kirish instruktajlarining kartochkasi kadrlar bo'limida saqlanadi. Ish joyidagi instruktajlar esa doimiy jurnalda qayd qilib boriladi. Mehnatni muhofaza qilish muhandisi ishchi komiteti bilan birgalikday mehnat sharoitini yaxshilash to'g'risida tadbirlar ishlab chiqadi va xuddi ish tadbirlar uchun xarajatlarni nazorat qilib turadi. Xo'jaliklarda mehnatni muhofaza qilish bo'icha maxsus kabinet bo'lib, unda maxsus plakatlar, adabiyotlar, asbob-uskunalar bilan jihozlanadi.

Mehnatni tashkil etishdagi katta e'tibor elektr agregatlaridan foydalanishga qaratiladi. Albatta, dastlab elektr agregatlarini o'rnatishga e'tibor beriladi, nazorat qilinadi. Jun qirqish punkti xo'jaliklarning sharq tomonida bo'lib, markaziy molxonadan 2 km uzoqlikda bo'lishi kerak. Punkt quruq, keng binoda, jun qirqish yog'ochli stollarda o'tkazilib, uzunligi 30 m bo'lishi lozim. Elektromontyor doimo punktda bo'lib, sistematik tarzda izolyasiyalarning holati, elektrodvigatellarni ishlashini nazorat qilib turishi kerak. Punktda ishlovchilar xavfsizlik qoidalari bilan yaqindan tanishtiriladi. Xo'jalikda tibbiyot xizmati yaxshi tashkil etiladi. Poliklinika xodimlari tez-tez oshxonalarni, do'konlarni sanitariya ahvolini tekshirib turadilar, ishchilarni, xizmatchilarni va mahalliy aholini yuqumli kasalliklarga qarshi emlab turadilar.

Xo'jalikning diqqat markazida yong'inga qarshi profilaktik tadbirlar turadi, albatta. Yong'inga qarshi muqimlar (maxsus yashiklar) albatta tayyor holatda turadi.

Bizlarning fikrimizcha, biz tajriba o'tkazgan xo'jalikda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ayrim kamchiliklar mavjud edi. Masalan, ba'zi brigadalarning territoriyasi qisman ko'kalamzorlashtirilgan, veterinariya punkti, yotoqxonada atrofidagi territoriyada tartibsizlik, xavfsizlik qoidalariga kam e'tibor berilgan. Maxsus cho'milish dushlari, maxsus kiyim saqlanadigan shkaflar mavjud emas.

Mehnatni muhofaza qilish xarajatlari to'g'risidagi hujjatlarni tahlil qilganimizda quyidagilarni aniqladik: Xarajat summasi quyidagicha taqsimlangan: 10 % ni texnika xavfsizligi uchun, 20 % ishlab chiqarish sanitariyasi uchun, 15 % tashkiliy tadbirlar uchun, 15 % li esa sport va fizkultura tadbirlari uchun.

Xo'jalikda baxtsiz hodisalarni hisobga olish va qayd qilish uchun maxsus jurnaldan foydalaniladi. Oxirgi uch yilda baxtsiz hodisa yuz bermagan.

Xizmat qiluvchi xodimlar maxsus kiyimlar bilan (kombinezon, fartuklar, oyoq kiyimi, himoya ko'zoynaklar va h.k.) ta'minlangan.

Maxsus ovqatlantirish yo'lga qo'yilmagan.

## **5.2. Fuqarolar mudofaasi**

Fuqaro mudofaasining asosiy vazifasi favqulodda holatlar (sel, bo'ron, suv toshqini, tog' ko'chkisi, atom quroli, kimyoviy, bakteriologik qurol, zilzila) yuz berganda aholini, ularning chorva mollarini, qishloq xo'jalik ekinlarini muhofaza qilishga qaratilgan.

Q/x mutaxassisleri favqulotda holatlarda o'z yo'nalishi bo'yicha baja-rilishi lozim bo'lgan ishlar to'g'risida nazariy va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.

Favqulotda holatlar yuz berganda (veterinariya vrachlari zimmasiga quyidagi vazifalar yuklanadi. Yadro quroli qo'llanilish xavfi e'lon qilingan paytda:

1. Mavjud binolar hayvonlarni himoya qilish uchun tayyorlanadi;
2. Hayvonlarni qanday himoya qilish yo'llarining mavjudligini aniqlash;
3. Mavjud bo'lgan yem-xashakni qanday qilib himoya qilish mumkin, uning qanday yo'llari mavjud;

4. Hayvonlarni radioaktiv nurlanish, kimyoviy va bakteriologik qurollar ta'siridan himoyalash uchun zarur bo'lgan birinchi darajali ishlarni amalga oshirish;

5. Hayvonlarni veterinariya ishlovidan o'tkazish kabi birinchi darajali tadbirlarni amalga oshirish;

6. Hayvon go'shti va mahsulotlarini VSE dan o'tkazib xulosa berish.

Hujum xavfi tug'ilishi bilanoq xo'jalikdagi molxonalar va boshqa chorva binolari chorva mollarini himoya qilish uchun tayyorlanadi. Dag'al xashak va shirali oziqalar berkitiladi. Yalpi qirg'in qurolining ta'sirini yo'qotish uchun kerakli ehtiyot choralari ko'riladi va zararlanish manbaida ishlash uchun q/x texnikasi tayyor holatga keltiriladi. Hayvonlar uchun himoya vositalari asosan zotli hayvonlar hamda qoramollarni zararlanish zonasidan olib o'tish uchun oldindan belgilab qo'yiladi. Qoramollar va yilqilarning nafas olish hamda ovqat hazm qilish organlarini himoya qilish maqsadida materiallardan qo'lda oddiy usulda niqoblar tayyorlanadi. Himoya niqobi korpus, bog'lash moslamasi va tasmalaridan iborat. Niqob korpusi va tagligi 3 qavat to'qima materialidan tikilgan, orasiga chang o'tkazmaydigan filtrlovchi materiallar qo'yiladi.

Zararlangan hayvonlarni davolash. Bakteriologik qurol ta'sirida zaharlangan hayvonlarni himoya qilishda vaksinalash va hasharotlar, kanalar, kemiruvchilarga qarshi kurash tadbirlari katta rol o'ynaydi. Hayvonlarni o'z vaqtida o'ta xavfli yuqumli kasalliklarga qarshi spesifik vaksinalar bilan davolash, shu kasalliklarning paydo bo'lishini va tarqalishini oldini olish mumkin. Bunday emlash ishlari, kasalliklarning oldini olish usullari iloji boricha dushman bakteriologik qurol ishlatish ehtimoli bor bo'lgan joylarda o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Biroq bu tadbirlarni oldindan o'tkazish ba'zi bir qiyinchiliklar tug'diradi, chunki dushman tomonidan qaysi kasallik tarqatuvchi bakteriyalar qo'llanilishini oldindan bilish mumkin emas. Bundan tashqari, ba'zi bir yuqumli kasalliklarga qarshi spesifik vaksinalar (manqa, cho'chqalar afrika o'lati) va zardoblar yo'q.

Yadro qurolidan shikastlangan hududlarda mollarni va yem-xashaklarni qutqarish ishlari. Yalpi zararlanish zonalarida SNAVR olib borish katta

qiyinchiliklarga olib keladi. Chunki katta hajmdagi ishlarni juda qisqa vaqt ichida o'tkazishga to'g'ri keladi. Buzilgan inshootlarda joylarning DMLar bilan zararlanishi va kuchli yong'inlar oqibatida hosil bo'lgan tutunlar bu ishlarni olib borishini murakkablashtiradi. Lekin shunga qaramasdan, yong'inni o'chirish, yonayotgan va qulayotgan molxonalardagi hayvonlarni qutqarish, ularni xavfsiz joylarga olib chiqish, shikastlangan mollarga tez yordam ko'rsatish hamda yem-xashakni saqlab qolish va energiya sistemasini tiklab qolish kerak.

## **6. Q/x da menejment va marketing**

Menejment bu – inglizcha so'z bo'lib, ingliz tilining Oksford lug'ati-da berilgan ta'rifga binoan u: boshqaruv hokimiyati va san'ati; resurslar-ni boshqarish bo'yicha alohida mohirlik vama'muriy ko'nikmalar tunshuniladi.

Boshqacha so'z bilan aytganda, menejment bu – boshqaruv, ya'ni resurslarni, odamlarni boshqarish, samarali faoliyat olib borish va foyda olishni bilish, uni ko'paytirish jarayonidir.

Boshqaruv – bu tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish jarayonidir.

Bizning mustaqil Respublikamiz jadal rivojlanayotgan mamlakat bo'lib, uning iqtisodiy salohiyatida qishloq xo'jaligi muhim o'rinni egal-laydi. Bundan bir necha yillar muqaddam mustaqillikning qo'lga kiritilishi bozor iqtisodiga o'tish islohotlari, mehnatni tashkil etish hamda agrosanoat majmuida ishlab chiqarishni boshqarish va tashkillashtirishning yangi shakllarining hosil qilinishi dehqon va fermer xo'jalik-lari tarmoqlarining kengayishi rivojlangan ilg'or davlatlarning tajriba-lari bilan yaqindan tanishish va ularning ichidagi eng samarador-larini ishlab chiqarishga joriy etishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikami iqtisodiy mustaqillik borasida butun dunyo tajribasi va mamlakatimizning tarixiy rivojlanishi xususiyatlari-ni hisobga olib, bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos modelini yaratdi.

Agrosanoat majmuida ishlab chiqarishni boshqarish va tashkillashtirish jarayonining bosh maqsadi mamlakatimiz aholisini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun mo'l-ko'l qishloq xo'jalik mahsulotlari

yetishtirish hamda sanoatimizga talab darajasidagi xom-ashyo negizini yaratish eng muhim masala hisoblanadi.

Boshqaruv usullari bu – xodimlarga va umuman, ishlab chiqarish jamoalariga ta'sir ko'rsatish usullari bo'lib, bu usullar qo'yilgan maqsadlarga erishish jarayonida mazkur xodimlar va jamoalarining faoliyatini uyg'unlashtirishni nazarda tutadi.

Boshqarishning tashkiliy-ma'muriy usullari boshqarish usullari tizimida alohida o'rin tutadi. Bu usullarga:

- boshqarish apparatining muayyan strukturasi tuzish;
- har bir boshqaruv bo'g'inining funksiyalarini belgilash;
- kadrlarni to'g'ri tanlash;
- buyruqlar, farmoyishlar va qo'llanmalar chiqarish, ularning bajarilishini nazorat qilish;
- topshiriqlar va direktiv ko'rsatmalarni bajarmayotgan bo'linma va shaxslarga nisbatan majburiy choralarni qo'llash kiradi.

Tashkiliy-ma'muriy usullar yuqori organlar hokimiyatiga va quyi organlarning bo'ysunishiga asoslanadi. Shuning uchun ularni ko'pincha ma'muriy usullar deb yuritiladi.

Rahbarlarning ishchanlik va ma'naviy-madaniy xislatlarini baholash amaliyoti shuni ko'rsatadiki, bunda birinchi o'rinda e'tiqodlilik, topshirilgan ish uchun shaxsan javobgarlikni his qilish, halollik, vijdonlilik, kishilarga nisbatan mehribonlik va e'tibor bilan munosabatda bo'lish turadi.

Rahbarlik uslubi, belgisi va bo'ysinuvchilarga nisbatan munosabatiga qarab, barcha rahbarlarni quyidagi uch turga ajratish mumkin:

1. Avtokratik rahbarlar.
2. Liberal rahbarlar.
3. Demokratik rahbarlar.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni sanoat negizida o'tkazish bu hozirgi bozor iqtisodiyoti davridagi asosiy dolzarb vazifalarning biri hisoblanadi.

Chorvachilik mahsulotlarini sanoat usulida ishlab chiqarishning asosiy vazifasi bu - qishloq xo'jalik hayvonlarini biologik imkoniyat-laridan to'liq foydalanish hamda kam oziqa va mehnat sarflab, yuqori mahsuldorlikga erishishdan iboratdir.

Chorvachilik sohasini boshqarishni tashkil etish va ularni boshqarish organlarining strukturasi qishloq xo'jaligining boshqa sohalarini boshqarishni tashkil etishga o'xshashdir. Qoramolchilik fermalari, cho'chqa-chilik komplekslari va parrandachilik fabrikalarida asosiy ishlab chiqarish bo'linmasi sanoat korxonalaridagi kabi sexlar hisoblanadi.

Fermada ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ferma boshlig'i zimmasiga yuklatilgan bo'lib, u fermada javobgar shaxs hisoblanadi. Fermadagi barcha ishchi xizmatchilar unga bo'ysunadilar.

Xo'jalik kerakli mutaxassislar bilan ta'minlangan bo'lib, ular rahbariyat tomonidan tuzilgan reja asosida doimiy ravishda o'z malaka-larini oshirib keladilar.

Umuman olganda xo'jalikda ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xo'jalikning rahbari zimmasiga yuklatilgan.

## **7. Xulosa**

1. Itlar orasida jinsiy a'zo kasalliklari keng tarqalgan va 8-12 % ni tashkil qiladi.

2. Tanosil sarkoma bilan kasallangan hayvonlarni ertaroq aniqlab, xirurgik yo'l bilan davolashni tashkil etish lozim.

3. O'sma sog'lom to'qimalar chegarasida olib tashlanishi lozim va shu bilan birgalikda sog'ayishi uchun o'sma elementlarining barchasini to'liqcha olish yoki zararsizlantirish kerak.

4. O'smani xirurgik operatsiya yo'li bilan olib tashlash vaqtida ablastika va antiblastika qoidalariga qat'iy rioya qilish kerak.

### **Amaliyotga takliflar**

1. Tanosil sarkoma bilan kasallangan itlar xirurgik yo'l bilan davolanishi kerak.

2. Tanosil sarkoma bilan kasallangan itlarni naslchilik ishlarida qo'llash maqsadga muvofiq emas.



## 8. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. "Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari". Toshkent "Sharq", 1998 yil.
2. Karimov I.A. "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarilari chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2006 yil 23 mart 308-qarori.
3. Karimov I.A. "Keksalarni e'zozlash yili" Davlat dasturi. 2014 y.
4. Abduraxmonov T.A., Davlatov R.B. «Veterinariya ishini tashkil yetish va uning iqtisodiyoti». Samarqand, 2004.
5. Abelev G.I. Chto takoye opuxol? Sorosovskiy obrazovatelniy jurnal. 1987, 3; 10, 85–90 str.
6. Belov A.D., Plaxotin M.V., Bashkirov B.A. i dr. Общaya veterinarnaya xirurgiya. M. Agropromizdat, 1990
7. Bogoslavskaya L.S. i dr. O sobake. M.: 1992.
8. Vasilyev Yu.M. Sosialnoye povedeniye normalnykh kletok i antisosialnoye povedeniye opuxolevnykh kletok. Kletki stroyat tkan.1997. 5. s. 20-25.
9. Vasilyev Yu.M. Sosialnoye povedeniye normalnykh kletok i antisosialnoye povedeniye opuxolevnykh kletok. Signkalnyemolekuly, vyztvayushchiye razmnojeniye i gibel kletok. 1992. s.17-22.
10. Ginzburg A.G. Organizatsiya i planirovaniye veterinarnogo dela. - M.: Aspekt-Press, 2005. - 492 s.
11. Gumennaya Ye.Yu., Diagnostika i lecheniye opuxoley u sobak. Krasnoyarsk GAU. 2003
12. Ziyodinov F. va boshqalar. Kinologiya asoslari. T.:2003.
13. Zyuss R, Kinsel V., Skribner dj d. Rak. Eksperimenty i gipotezy. M. Mir, 1987, 358 s.
14. Ibisliyev T.T. Kompleksnaya terapiya sluchaynykh infisirovannykh ran u jivotnykh. Avtor. diss. na soiskanii uchyonoy stepeni kandidata veterinarnykh nauk. Sankt–Peterburg – 2012

- 15.Ivanov I.M. Eshdemiologiya ili zakonomernosti rasprostraneniya opuxoley. Onkologiya. 2000.
- 16.Kalashnin F.F. Sitologicheskaya diagnostika opuxoley u domashnix животных. Persianovka. 1986.
- 17.Kuleshova O.A. Kliniko–morfologicheskoye obosnovaniye fotodinamicheskoy terapii u sobak i koshek Avtoreferat na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata veterinarnyx nauk. Moskva. 2012.
- 18.Kuleshova Ya A Opuxoli nosovoy polosti u sobak i koshek, etiologiya, klinicheskiye simptomы i diagnostika. – Yekaterinburg «Veterinarnaya klinika», 2007, №7,27–31
- 19.Kuleshova Ya.A., Yagnikov S.A. Diagnostika i lecheniye opuxoley nosovoy polosti u sobak i koshek. Metodicheskiye rekomendatsii. Rossiyskiy universitet drujby narodov. M., 2008. – S. 32.
- 20.Laptev N.Ye. Krivoshein G.A. Analiz opuxoley животных. Tr. U Vsesoyuznaya konf. po patanatomii s-x животных. Kirovskiy SXI, 1995.
21. Lopuxin Yu. M Pervichnyye immunodefisitы i metody ix korreksii. - J Vesn. AMN 1, 1979, str. 15-18.
22. Narziyev B.D. «Itlarning umumiy va maxsus dressirovkasi» Samarqand 2011y.
- 23.Osipov N.Ye., Golubeva V.A. Diagnostika i lecheniye transmissivnoy sarkomы sobak. Veterinariya. № 6, 1976.
- 24.Petrov R.V. Patologiya immunnoy sistemы. - Moskva: Medisina, 1983, str.40. 61.
- 25.Petrov R.V., Xaitov R.M., Regulyasiya immunnogo otveta. - Moskva: Medisina, 1981 g., str. 312.
26. Popov N.A. Organizasiya selskoxozyaystvennogo proizvodstva. - M.:YeKMOS, 2005. - 352 s.
- 27.Terexov K.N. Veterinarnaya onkologiya. 1983.
- 28.Terexov P.F. Veterinarnaya onkologiya. M.;1983.

29. Tokin A. S. Podbor sxem ximioterapii dlya lecheniya opuxoley nosovyx hodov u sobak. /Stekolnikov A.A., Bokarev A.V. // «Новые фармакологические средства в ветеринарии» Материалы 19 международной межвузовской научно–практической конференции. Санкт–Петербург. 2007 г. Стр. 42–43.
30. Tokin A.S. Vliyaniye protivopuxolevyykh preparatov na vyjivaniye kletok pervichnoy opuxoli polosti nosa sobaki INVITRO. (korrelyasiya mezhdu padeniyem aktivnosti kletochnykh degidrogenaz i izmeneniyem morfologii yadryshka i yadryshkovykh organizatorov). / Bokarev A.V., Stekolnikov A.A., Lakovnikov Ye.A., Solomatova Ye.S. // Первый международный конгресс ветеринарных фармакологов. «Эффективные и безопасные лекарственные средства» Санкт–Петербург. 2008 года. Стр 8 – 9.
31. Tokin A.S. Diagnostika novoobrazovaniy polosti i pridatochnykh pazux nosa u sobak. / Bokarev A.V., Stekolnikov A.A. // Актуальные проблемы ветеринарной медицины. Сборник научных трудов № 139., Санкт–Петербург. 2007 год. Стр. 10 – 13.
32. Tokin A.S. Issledovaniye gistologicheskix variantov pervichnix opuxoley polosti i pridatochnix pazux nosa u sobak. 1–vserossiyskaya mezhvuzovskaya konferentsiya po veterinarnoy xirurgii. Sbornik. Moskva. 2010 g., str. 127–128. (232 str.)
33. Tokin A.S. Lecheniye opuxoley nosa u sobak. Avtoreferat dissertatsii na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata veterinarnix nauk, Санкт–Петербург, 2011.
34. Tokin A.S. Onkologicheskaya nastorojennost pri nosovix krovotечheniyax u sobak. / Stekolnikov A.A., Bokarev A.V. // Материалы конференции «Белие ноши – 2007» Vestnik № 3., Санкт–Петербург 29 iyunya 2007 goda. Стр. 61 – 65.
35. Xasanov R.A.. Dekorativnoye sobakovodstvo. T.:1990.
36. Xoxrin S.N. “Kormleniye sobak” Санкт-Peterburg. 2001.

37. Yagnikov S.A., Lukoyanova M.L., Vilkovskiy I.F., Yakunina M.N., Korniyushenkov Ye.A. Opuxoli spinnogo mozga i pozvonochnogo stolba u sobak. «Rossiyskiy veterinarniy jurnal». M., «Kolos» 2005, 4, 7–11.
38. <http://www.Olegmoskalev.ru/agro/zveri/25.htm>.
39. <http://www.AksonKLKiev.ua/vet/gelm>.
40. [medbookaide.ru](http://medbookaide.ru)
41. [curemed.ru](http://curemed.ru)
42. [dic.academic.ru](http://dic.academic.ru)
43. [revolution.allbest.ru](http://revolution.allbest.ru)
44. [referat.yabotanik.ru](http://referat.yabotanik.ru)
45. [zhivotnovodstvo.net.ru](http://zhivotnovodstvo.net.ru)
46. [zoonoz.ru](http://zoonoz.ru)
47. [gras.oryol.ru](http://gras.oryol.ru)
48. [bibliofond.ru](http://bibliofond.ru)
49. [ru.wikipedia.org](http://ru.wikipedia.org)
50. [webmvc.com](http://webmvc.com)